

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
FILOLOGIYA FAKULTETI  
FILOLOGIYA VA TILLARNI O`QITISH (O`ZBEK TILI) TA`LIMI  
YO`NALISHI  
6-1-UZB-15-GURUH TALABASI  
EGAMBERDIYEVA GULCHIROYNING  
“OYDIN HOJIYEVA SHE`RLARINING G`OYAVIY - BADIY  
XUSUSIYATLARI” MAVZUSIDA YOZGAN

# BITIRUV - MALAKAVIY ISHI

ILMIY RAHBAR:

f.f.d., professor

D.H. QUVVATOVA

BUXORO – 2019

**Mavzu: Oydin Hojiyeva she'riyatining g'oyaviy - badiiy xususiyatlari**

**Reja:**

**Kirish. Ishning umumiy tavsifi**

**I bob. Oydin Hojiyeva zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin namoyandasi**

- 1.1. Oydin Hojiyevaning ijodiy biografiyasi.
- 1.2. Shoir she'rlarining janriy tarkibi.
- 1.3. Shoir she'rlarida avtobiografizm.

**Bob bo'yicha umumiy xulosa**

**II bob. Oydin Hojiyeva she'riyatining badiiy xususiyatlari**

- 2.1. Shoir she'riyatining mavzu va obrazlar olami.
- 2.2. Shoiraning badiiy san'atlardan foydalanishdagi mahorati.

**Bob bo'yicha umumiy xulosa**

**Xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** O'tgan asrning 70- yillarida o'zbek adabiyotiga bir qator ayol shoiralar kirib keldi. Oydin Hojiyeva, Halima Xudoyberdiyeva, Gulchehra Jo'rayeva kabilar shular jumlasidandir. Bular orasida Oydin Hojiyeva samimiy his tuyg'ularga to'la she'riyati bilan alohida ajralib turadi. Shoiraning turli yillarda nashr etilgan she'riy to'plamlari: "Mushfiq onajon" va "Bolalik", "Najot", "Bo'zto'rg'ay" singari dostonlari bosqichma- bosqich kamolotga erishgan ijodkor qiyofasini namoyon etib turadi. Uning Vatan haqidagi manzumalari, muhabbat va tabiat mavzusidagi yoniq bitiklari, istiqlol tarannum etilgan she'rlari, xalqimiz hayotining kechasi va buguni aks etgan lirik va liro epik dostonlari adabiy jamoatchilik e'tiborini tortib kelmoqda. Ayniqsa, ayol qalbi navolari aks etgan she'rlarda shoiraning o'zligi, iqtidori namoyon bo'lgan.

Shoira she'rlari zamonaviy o'zbek lirikasining turli janrlarida bitilgan. Bu O.Hojiyeva ijodining janriy rang-barangligini ham ko'rsatib turadi. An'anaviy barmoqdan tashqari aruz vaznida yozilgan she'rlar esa shakliy xilma - xillik xususiyatini ko'rsatib turadi. Adabiyotshunosligimizda shoira ijodi haqida maxsus izlanish olib borilgan emas. Faqat kuzatganimiz she'riy to'plamlariga yozilgan so'zboshi xarakteridagi maqolalar, taqrizlar, davr she'riyati mohiyati aks etgan katta maqolalar va 70-80-yillar she'riyati mavzusidagi dissertatsiyalarda fikrlar mavjud, xolos. Ushbu mo'jaz izlanishimizda o'zimizgacha bajarilgan ishlarga tayangan holda O.Hojieva she'riyatiga xos xususiyatlarni maxsus o'rganishga harakat qilamiz. Bu bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek she'riyati vakillari ijodi adabiyotshunosligimizda bir qator adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilgan. Taniqli adabiyotshunos A.Rasulovning "Oydin she'riyat" nomli kitobi<sup>1</sup> bu boradagi salmoqli tadqiqotlardan sanaladi. Istiqlol yillarida yaratilgan bu kitobda shoira ijodiga xos xususiyatlar umumlashtirilgan. Shu bilan birga

---

<sup>1</sup> Расулов А. Ойдин шеърият. Тошкент, 2010.

Q.Rajabov, R.Maqsudovlarning “Qiziltepa tarixi”<sup>2</sup> kitobida O.Hojiyevaga alohida sahifa ajratilgan. Professor O.Safarovning “Buxoro adabiy harakatchiligi sahifalaridan lavhalar” nomli keng qamrovli tadqiqotida shoira haqida alohida maqola mavjud<sup>3</sup>. D.Quvvatovanning “XX asr ikkinchi yarmida o‘zbek poemasi” monografiyasida O. Hojiyeva dostonlari tahlil etilgan<sup>4</sup>. S.Mirvaliev tomonidan tuzilgan “O‘zbek adiblari” to‘plamidan O.Hojiyeva ham o‘rin olgan<sup>5</sup>. Shu ishlarga tayanib, biz bitiruv malakaviy ishi doirasida shoira ijodiga xos xususiyatlarni ochib berishga harakat qilamiz.

**Bitiruv malakaviy ishining manbayi.** Bitiruv malakaviy ishining manbayi sifatida O.Hojiyevaning “Shom shu‘lolari”, “Panohim”, “Tong tuhfalari”, “Ko‘zimning oqu qorasi”, “Mushfiq onajon” singari turli yillarda chop etilgan she‘riy to‘plamlari tanlandi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Tadqiqot o‘z oldiga Oydin Hojiyeva she‘riyatiga xos xususiyatlarni ochib berishni ko‘zlaydi. Shu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqot o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- O.Hojiyevaning ijodiy biografiyasiga nazar solish;
- shoira she‘riyatining janriy tarkibini o‘rganish;
- shoira she‘rlarining obraz va mavzular olamini yoritish;
- dostonchilikdagi izlanishlarini tahlil etish;
- shoira badiiy mahoratini o‘rganish;
- shu asosda O.Hojiyevaning zamonaviy o‘zbek she‘riyatida tutgan mavqeyini belgilashdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.** Oydin Hojiyeva zamonaviy o‘zbek she‘riyatida o‘z so‘zi va ovozigaga ega ijodkordir. Uning turli mavzudagi she‘rlari va dostonlari kitobxonlarning, qolaversa, she‘riyat ixlosmandlarining ma‘naviy mulkiga aylangan. Shu ma‘noda shoira she‘rlari mavzu jihatdan boy va rang-barangdir. Bitiruv malakaviy ishida ilk marta Oydin Hojiyeva she‘riyatining

---

<sup>2</sup> Ражабов Қ., Мақсудов Р. Қизилтепа тарихи. Тошкент: Мухаррир, 2011.

<sup>3</sup> Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги саҳифаларидан лавҳалар.

<sup>4</sup> Қувватова Д. XX аср иккинчи ярмида ўзбек поэмаси. Тошкент: Туронзаминзиё, 2014.

<sup>5</sup> Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адиблари. Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 2016.

g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, uning shoira sifatidagi ijodiy qiyofasi yaxlit tarzda o'rganilmoqda.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Tadqiqotdagi ilmiy umumlashma va xulosalardan “Yangi o'zbek adabiyoti”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi” fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tishda, o'rta maktabning boshlang'ich va quyi sinflarida adabiyot darslarini o'tishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining joriylanishi.** Bitiruv malakaviy ishi mavzusi O'zbek adabiyoti kafedrasining 2018-yil aprelda bo'lib o'tgan yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan. Kafedraning 2019-yil may oyida bo'lib o'tgan yig'ilishida himoyaga tavsiya etilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** Ish kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan.

## **I bob. Oydin Hojiyeva zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin namoyandasi**

### **1.1. Oydin Hojiyevaning ijodiy biografiyasi**

Hech kim qo'llamagan qiyos, timsolni ko'rish, tasvirlash – shoirlikning muhim sinovlaridan. O'zbek she'riyatida nozik didli, betakror ko'rish qobiliyatiga ega shoirlar ko'p. Shulardan biri hozirgi o'zbek she'riyatining iste'dodli vakilasi Oydin Hojiyevadir. O'zining nafis va mayin she'rlari, tug'yonli dostonlari bilan kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan O'zbekiston xalq shoirasi Oydin Hojiyeva asarlarida jo'shqin yoshlik his- tuyg'ulari, ona yurtimiz, go'zal tabiat manzaralari, ayol qalbi tug'yonlari o'zining yorqin ifodasini topgan.

Oydin Hojiyeva 1942- yil 22- aprelda Buxoro (hozirgi Navoiy) viloyatining Qiziltepa tumani Bo'ston qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. 1960- yil o'rta maktabni kumush medal, 1966-yili Toshkent davlat universiteti filologiya fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatgan. Mehnat faoliyatini 1965-yilda “Sharq yulduzi” jurnalida adabiy xodimlikdan boshlagan Oydin Hojiyeva 1976- yilgacha shu jurnalda bo'lim mudiri, 1976-1985- yillarda respublika xotin-qizlarning “Saodat” jurnalida bo'lim boshlig'i, 1985-1994- yillarda “Gulxan” jurnalida bosh muharrir lavozimlarida faoliyat yuritdi. 1994- yilning avgustidan 2013- yilgacha “Saodat” jurnali va uning ilovasi “Gulchehralar” gazetasi bosh muharriri bo'lib ishladi. 1971- yildan Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Ilk kitobi 1970- yilda “Shabnam” nomi bilan e'lon qilindi. Shundan so'ng shoiraning “Manzillar” (1970), “Men sevgan qo'shiq” (1972), “Zarkokil qiz va quyosh” (1972), “Orzu guli” (1974), “Tarovat” (1976), “Navo” (1977), “Buvisining o'z qizi” (1979), “Dostonlar” (1980), “Xushxabar” (1983), “Mushfiq onajon” (1983), “Chashmalarni izlayman” (1986), “Ko'zimning oq-u qorasi” (Saylanma,1989), “Tamal toshi” (1988), “Ishonch yulduzi” (1989), “Najot” (1991), “Olisdan kelgan ovoz” (1991), “Panohim” (1998), “Nazokat” (2007), “Shom shu'lalari” (2010), “Tong tuhfalari” (2012), rus tilida “Утренняя роза” (1973), “Пятнадцать под одной крышей”(1974), “Жаворонок” (1984), “Урюковая косточка” (1985), “Основа” (1987), qoraqalpoq tilida “Onam sevgan qo'shiq” (1972) kabi 30 ga yaqin she'riy guldastalari, publitsistik maqolalar

to'plami, "Kelinchak", "Hayotga ta'zim", "Bolalik dostoni", "Bo'zto'rg'ay" kabi poemalari dunyo yuzini ko'rdi. Ular orasida "Shom shu'lalari", "Chashmalarni izlayman", "To'rt tanho", "Ishq aro parvonalar" kabi publitsistik asarlar, bolalar uchun yozilgan ajoyib she'rlar ham bor.

Oydin Hojiyevaning deyarli barcha to'plamlarida pokiza va mehribon, kechirimli va sadoqatli ona tuyg'ulari, didli, farosatli va noziktab shoira qalbi jo'sh urib turadi. Bir ko'rishda nozik tuyg'ular, nafis misralar bo'lib tuyulgan she'rlar zahirida zalvorli insoniy g'oyalar – dunyo voqealariga hamdardlik, insonlar mushkulini yengillashtirish uchun kurash, o'z ona xalqi, ona tuprog'i, madaniy merosiga mehr baralla yangraydi<sup>6</sup>. Vatanga muhabbat, ma'naviy poklik, til bilan dil birligi, hayotning abadiy orzu - armonlari, inson matonati, xalqimizning olijanob qalbini kuylash, odamlarga munis, mehribon dardkash bo'lmoq istagi shoira ijodining bosh mavzusidir. "Istiqlolga qasida" (1992), "Elim", "Buxoro taronasi" (1997), "Ozod so'z yolqinlari" (2001), "Buyuk karvon", "Tavallud taronasi" (2002), "Ziyorat" (2004) kabi doston, qasidalarida mustaqillikni ulug'lash, istiqloлга sadoqat g'oyalari tarannum etiladi.

Oydin Hojiyeva ona va bola mavzusiga bag'ishlangan dolzarb maqolalari bilan ham tilga tushdi. "Ruhimizga yong'in tushmasin", "Meni iztirobga solar bu o'ylar", "Millatning qayg'usi nima?" kabi publitsistik maqolalarida mustaqillikka erishish ostonasida til masalalari, o'zbek xotin-qizlarining og'ir dala mehnati muammolarini dadil ko'tardi. O'zbekiston xotin-qizlar harakatini faollashtirishda, yoritishda jonbozlik ko'rsatdi. "Milliy va ijtimoiy barkamollik" jamg'armasiga rahbarlik qildi (1993-1995)<sup>7</sup>.

Oydin Hojiyeva ajoyib tarjimon hamdir. U Sh.Petefi, A.Mskevich, R.Kazakova, M.Dilboziy, Edi Ognetsvet, Gulruhsor, M.Abdulqosimova, F.Ungarsinova kabi turli millat shoirlarining she'rlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Ayni chog'da, uning asarlari qator qardosh tillar, rus, fransuz, ingliz va urdu tillariga tarjima qilingan. Oydin Hojiyeva 1992-yilda "O'zbekiston xalq

---

<sup>6</sup>O'zbek adiblari( Oydin Hojiyeva). "Gulxan" jurnali. 2018-yil, 3-son.

<sup>7</sup> Mirvaliyev S., Shokirova R. O'zbek adiblari. – T.: G'ulom nashriyoti. 2016.

shoiri” degan sharaflı unvonga, 1999-yilda esa “El-yurt hurmati” ordeniga sazovor bo`lgan.

Yarim asrdiki, shoiraning qo`lidan qalam tushmaydi: maqola yozadi, she`riy va nasriy asarlar yaratadi, bosh muharrir sifatida yuzlab qo`lyozmalarni saralaydi. Shoir tolmash targ`ibotchi: adabiy uchrashuvlarda qatnashadi, Yozuvchilar uyushmasi tadbirlarida ishtirok etadi. Yurt kezadi, istiqlol samalarini o`z ko`zi bilan ko`radi, zamondoshlari bilan suhbat quradi.

Shoiraning “Shom shu`lari” saylanmasi – umr kitobi, yuzlab taqdirning nozik portreti, ohanglar olami, ranglar jilosi, yaqin - yiroq voqea - hodisalarning she`r shaklida namoyon bo`lishi, istiqlol, istiqbol, sho`ro zamonining jabrdiyda siymolari asosiy qahramon bo`lgan cho`ng kitob. Shoir odamlar holati, bo`ron uchirgan yurt ko`rinishini topib - topib, o`xshatib - o`xshatib tasvirlaydi. “Yig`lay-yig`lay so`qir bo`ldi buloqlar”, “gullab - gullab taqir bo`ldi gulbog`lar”, “qirg`oqlar hijron xatini o`qiydi” kabi noyob topilma – o`xshatishlar topadi. “Shom shu`lari” saralab, saylab olingan she`rlar to`plami. Ularni nozik did, sinchkovlik bilan o`rganish, qo`llanilgan san`atlarni baholash, yangi so`z, timsoliy iboralarni, ohorli tashbehlarining hayotiyiligini, ontologik mohiyatini ruh tarozusida o`lchash joiz. “Shom shu`lari” iste`dodli shoiraning asl qo`shiqlari, tansiq o`lanlari, jo`shib aytgan alyorlari, she`rxonni o`ylantiradigan, shirin azoblar dunyosiga olib kiradigan asarlar saylanmasi. “Shom shu`lari” ohanglar jamuljam bo`lgan saylanma. Unda “Ishq mayin ichdim, mayparast bo`ldim” singari mashrabona aytimlar; “Sandiqchada oq ro`mol! Ro`molchanning egasi Ochilmagan gul misol...” singari o`lanlar; “Dupur- dupur kelsa ot, qiz qo`shiq boshlar noshod. Yonmadi oltin pichoq, zanglab ham qolmas biroq...” toifasidagi qo`shiqlar; “Yetti pushtiga salom, xelu xushtiga salom” tarzidagi kelin- salomlar; “Yaltirab yotibdi kuzning gullari” deb boshlanadigan og`ir karvon misralar bor<sup>8</sup>.

Oydin Hojiyevaning aksariyat lirik qahramoni ayol. Ayol –hayot tiragi, urf-odatlarni davom ettiradi, allasi bilanoq o`g`lini Alpomishday bo`lishga da`vat

---

<sup>8</sup> Расулов А. Ойдин шеърят. – Т.:2010.

etadi. Oilasini, el-yurtini balolardan himoya qiladi. Jasoratli, aql- hushli ayollari ko`p bo`lgan xalq hamisha o`sadi, ulg`ayadi:

Tog`lar sendan o`rganar  
Sukunatni, bardoshni.  
Duoyingdan el ko`karar,  
Qarg`ishing yorar toshni.  
Millatning jon tomiri  
Sen vatanga timsolsan,  
Yurtning o`chmas chirog`i  
Momo Havo – Ayolsan.

Shoira nazdida ayol borliq – uch tug`ishgan (jamodod, nabotot, hayvonot)ning boshlanishi, asl manbayi. Ayol ta`rifini ado qilib bo`lmaydi. Ayol va go`zallik egizak tushuncha. Ayol yuzidagi kulgichlarida ikki tutam nur beradi. Ayollar olami... Bu olam yuzlab va minglab katta - kichik yulduzlardan iborat. Bu olamlarda o`zining baxtli va baxtsiz daqiqalari, quyoshli va bulutli, faraxli va fojiali kunlari bo`ladi. Bu olamda kechgan shunday kunlar boshqasini ham chetlab o`tmasligi, davrning o`tkinchi shamollari esa bu olamlarda ungan gullarni bir umrga qovjiratib, muhabbat va hayot bog`ini za`faron qilib ketishi mumkin. Shoira shunday hollarni qalb ko`zi bilan ko`rib, unga o`z munosabatini bildirishga, mushkul yoki musibatli daqiqalarni boshdan kechirayotgan vatandoshlari dardiga malham bo`lishga, ularning ko`ngil darchasiga yo`l topishga intiladi:

Ko`ngil darchasiga qanday ochay yo`l?  
Qanday quloq tutay yurak toringga?  
Sen izlab kelibsan bitta to`g`ri yo`l,  
Jo`yali maslahat jism-u zoringga.  
Sening davlating-ku ilk muhabbating,  
Qizg`aldoq guliday nafosating ul.  
Ul senga Allohdan bitmish qismating,  
Poklik deb atalgan ibodating ul.

Oydin Hojiyeva she'riyatning 50- yillarda ayollar qismatiga, binobarin, jamiyat hayotiga ko'rsatgan ta'siridan rag'bat olib, shu she'rni yozishga jazm etdi. Bu o'z vaqtida yozilgan, turmush so'qmoqlarida adashgan yosh dugonasini ibodat manzillariga chorlovchi she'r ijodkorning shoiralik burchini, jamiyat oldidagi mas'uliyatini chuqur his etganidan dalolat beradi. Oydin Hojiyeva muhabbatning “qizg'aldoq guliday nafosati” boyagi notanish dugona-yu notanish singilarning davlati ekanini biladi, ular qalbiga kuyish bilangina kifoyalanmaydi. Uning she'rlarida siymosi yorqin lirik qahramon o'z sevgisiga sadoqati bilan baxtli. U saodat daraxtining doim gullab – yashnab turishi, shirin mevalar berishi uchun suyukli yorining qadriga yetishga, uning oson bo'lmagan yo'llariga guldand poyandoz yozishga, hatto o'zini fido qilishga ham tayyor. Quyidagi satrlaridan havolanib – parvozanib turgan lirik qahramon qalbining navolari o'z ifodasini topgan:

Sizni “gulim”, “gulim” qildim,

O'zginamga zulm qildim.

Siz o'tgan tosh ko'chalarni

Men shahri Arzirim qildim.

O'z yorini shunday alqovchi mehrparvar satrlarda Oydin Hojiyevaning lirik qahramoni qalbidagi ezgu insoniy fazilatlar mavjlanib ketadi. Ba'zan yashirinib yotgan, ba'zan bulut bag'rini tilib chiqqan oydek namoyon bo'lgan bunday fazilatlar tasviri kitobxon qalbinining ko'rinmas torlarini chertib, jaranglatib yuboradi. She'riyatning ibodat maskani ekanligi ana shu aks - sadoda o'z tasdig'ini topadi. Shunga ko'ra Oydin Hojiyevani mehr shoiri, mehrli shoir deb atash o'rinli bo'ladi<sup>9</sup>. Shoiraning butun she'riyati shunday rangin tovlanishlari bilan ajralib turadi. Ular inson va vatanga hayajonli mehr bilan yo'g'rilgan.

Shoiraning so'nggi yigirma yillik ijodidagi asosiy mavzu – istiqlool. Shoiraning doston va qasidalari, asosan, istiqlool, mustaqillik uchun jon fido qilganlar, kurashganlar haqida. Shoira shu kunlar yuksakligidan uzoq tarixiga nazar tashlaydi. Buyuk bobolarimiz, iste'dodli shoir-u olimlarimiz faoliyati

---

<sup>9</sup> Каримов Н. Мехрли шеърият. – Т.:Шарқ, 2010.

maxrajida hamisha istiqlol g'oyasi bo'lgan. "Ziyorat" dostonini shoira o'z oilasidagi voqeadan boshlaydi. Akasi Ne'matjon urushga ketgan, ona qirq yil bo'zladi, o'g'lidan darak izladi. Mustaqillik maydonidagi motamsaro Onada barcha ayollar, xususan, Ne'matjonning onasi tortgan alam aks etgan. "Istiqlolga qasida" esa istiqlolni qo'lga kiritishda xizmat qilganlarga hurmat ifodasi, yo'ning baland-pastliklari, kurashu yo'qotishlari, quvonch-u tashvishlarining shoirona tasviridir.

Shoiraning she'rlari va dostonlarida urush davrining guldek kelinchaklari, otasiz qolgan dugonalarining urushga ketgan yigitlar o'rnida qolib kecha-yu kunduz mehnat qilgan keksa chollar, yoshi o'tib qolgan ayollarni ko'ramiz, ularning ovozini eshitib qalblariga nazar tashlagandek bo'lamiz. Bulardan tashqari, istiqlol yillarida Oydin Hojiyeva qalbidan joy olgan, turli sohalarda xizmat qilayotgan turli yoshdagi kishilar ham o'z turfa obrazlari bilan uning she'rlarida bo'y cho'zib turgandek bo'ladi. Tarixiy davr uning she'rlarida o'z takrorlanmas xususiyatlari bilan aks etadi. Shoira shu davrning farzandi – o'z she'rlarining lirik qahramoni sifatida vatandoshlari va zamondoshlarining ko'z yoshlar-yu qadoq qo'llarini o'zining his- tuyg'ulari va kechinmalari orqali ifodalaydi. Shoira o'z she'rlarida inson va ta'rix, inson va jamiyat, inson va tabiat mavzularini doim mahorat bilan yoritdi. Biz uning she'rlaridagi ko'hna Buxoroning serbo'yoq koloritli manzaralari va shu zaminda yashagan ajdodlarning lirik tasviri osha shoira yashagan va yashayotga vatan tarixini ko'z o'ngimizda ko'rgandek bo'lamiz. O'z tasavvuri va tafakkurida o'tmish, hozirgi va kelajak zamonlarni o'zaro uyg'unlashtirgan shoira to'rtliklaridan birida bejiz bunday yozmagan:

Falak ayvonida burji faraxman,

Gahi baxtdan, gahi darddan karaxtman.

Qayu oftob o'tibdi boshingizdan,

Mehr bog'inda-ku ko'm-ko'k daraxtman.

Ilhom shamollari dam- badam esganda ana shu zumrad daraxt bag`ridan goh g`amgin va qayg`uli, goh sokin va o`ychan, goh quvnoq va shodon navolar taralib turadi.

## **1.2. Oydin Hojiyeva she'riyatining janriy xususiyatlari**

O`zining nafis mayin she'rlari, tug`yonli dostonlari va xalq hayotidan olingan mo`jaz hikoyalari bilan kitobxonlar mehrini qozonib kelayotgan O`zbekiston Xalq shoirasi Oydin Hojiyeva mehr tolasidan eshilgan baytlari bilan dilkash suhbatdosh bo`la oladi. Uning har bir asari ko`ngilda buloqday qaynab yotgan yoshlik tuyg`ulari, tabiatning zumrad chiroyi, o`zbek ayolining ipakdan-da mayin xayollaridan dunyoga kelgan. Uning toza qalbidan jo`shqin, ohori to`kilmagan, quyma satrlar poeziyaning she'r, manzuma, qasida, doston, she'riy qissa, esse - xotiro, to`rtliklar bo`lib dillarga ko`chdi.

Shoira, asosan, barmoq vaznida butun vujudi bilan to`lib-toshib kuyladi:

Davralarga kirdim-u

Qo`shildim suhbatlarga.

Ters o`girdim yuzimni

Alamga, g`urbatlarga.

Ne baxtki, topdim uni

Izlaganim she'r ekan.

To`ldi mening hayotim

Kuy bilan jur'atlarga.

Ushbu she'r qofiyasi to`liq(shuhbat,g`urbat, jur'at). 4+3=7 tarzida turoqlarga bo'lingan. Shoira she'rida o'z hayoti mazmunini qidirib, oxir uni topganligiga, bu mazmun sof va pokiza, intim tuyg`ular toshqinidan tug`iladigan samimiy satrlar ekanligi va ular hayot atalmish g`amxonaga nur-u ziyo taratib turganligiga amin bo`ladi.

Shuningdek, shoiraning "Mushfiq onajon" to`plamidan mumtoz adabiyotimizdagi shaklan mustazod janriga o`xshash "Ilk muhabbat" she'ri ham o`rin olgan:

Soylar shivirida o`qib hikoya,  
O`qib hikoya –  
Qush bo`lib uchsang,  
Yuraging aqlingga qilmay rioya,  
Qilmay rioya –  
Xayoling ko`chsa,

O`n sakkiz yoshingga, bilaman shu payt,  
Bilaman shu payt  
Qaytursan albat,  
Qarshingga charx urgum men –ilk muhabbat,  
Men –ilk muhabbat,  
Men –ilk muhabbat!

Ammo mustazodda uzun misralar (14 va undan ortiq bo`g`inli) qisqa misralar (6 bo`g`inli) bilan o`zaro almashib keladi. Uzun misra uzun misra bilan, qisqa misra qisqa misra bilan qofiyalanadi. Qofiyalanish tizimi: birinchi band (muxammasda) – ab, ab, ab, ab, ab; ikkinchi band – vg, vg, vg, vg, ab; uchinchi band – de, de, de, de, ab kabi. Agar mustazod ikki juft misra kesishuvidan iborat bo`lsa, birinchi bandda qofiya kesishuvi – ab, ab; keyingilarida birinchi misra qofiyalanmay, ikkinchilari birinchi banddagi qofiyaning takrorlaydi<sup>10</sup>. Shuningdek, mustazod janri aruzning hazaji musammani axrabi makfufi mahfuz vaznida yaratilishi qat`iy belgilab qo`yilgan. Yuqoridagi she`r shaklan mustazodga o`xshasa-da, vazn va qofiya jihatdan mustazod janri talablariga mos kelmaydi. Shu bois ham, uni mustazod deb atay olmaymiz. Uni XX asr adabiyotidagi shakliy izlanishlar natijasi o`laroq yaratilgan bir mo`jaz she`r sifatida ko`rishimiz mumkin.

Shoira ko`hna va boqiy Buxoroni madh etib, aruz vaznida go`zal satrlarni yozgan:

Qayon borsam jahon ichra borur ul yon Buxoro ham,

---

<sup>10</sup> ЎзМЭ. Биринчи жилд. – Тошкент, 2000.

So`rab baxtim somon bo`lsam, bo`lur somon Buxoro ham.

Niholim, munisim, dardkash, tanamda qatrayi jonsan,

G`aninga o`q otar bo`lsam, bo`lur kamon Buxoro ham.

Mumtoz adabiyotdagi asosiy vazn hisoblanuvchi aruz vaznida yaratilgan ushbu she`r mafoiylun ruknida (taqtisi:V\_ \_ \_), hazaj bahrida yozilgan bo`lib, a-a, b-a tarzida qofiyalangan. Bunday qofiyalanishdan g`azal va qasidalar yuzaga keladi. Bunda ta`rif-tavsif, vasf, madh etish ustunlik qilgani uchun uni Buxoroga bag`ishlangan qasida deyish mumkin.

Saida Zunnunova, Nasimiy g`azallariga muxammas, Navoiy g`azallariga musaddas bog`lagan shoira ularga izdoshlik faxri hissini tuyadi.

S.Zunnunova g`azaliga muxammas:

Gul emas, ul hajrida bulbul navosi bo`lmasa,

Ahd emas, ul oqibat zarra vafosi bo`lmasa,

Umr emasdur ul kishining bir fidosi bo`lmasa,

Notavon ko`nglim netardi muhtalosi bo`lmasa,

Ne qilay, bu muhtalolikning davosi bo`lmasa.

Odatda, muxammaslar ikki xil ko`rinishga ega bo`ladi: taxmis-muxammas va erkin-muxammas. Taxmis-muxammasda ijodkor boshqa biror shoir ijodidan bir bayt keltirib, uni xuddi shu vazn, shu qofiyada davom ettiradi. Erkin-muxammasda esa shoir mavzu, vazn va qofiyaga erkin yondashadi. Bundan ko`rinib turibdiki, O.Hojiyeva qalamiga mansub muxammaslar taxmis-muxammas hisoblanadi.

Shoiraning bandlari muxammas shaklidagi shunday she`rlari borki, ularni shaklan yuqoridagi muxammasdan farqlay olmaymiz, lekin ularning avvalambor, aruz vaznida yozilmaganligi, qolaversa, hajman uncha katta emasligi, qofiyalanish tartibidagi xilma- xillik (a-a-a-a-b, d-d-d-d-b, e-e-e-e-b yoki b-b-b-a-a, d-d-d-a-a, e-e-e-a-a) bunday shakldagi she`rlarning ham barmoqda yozilgan she`r deya atashimizga asos bo`ladi:

Nafis kurtaklagan tolgullarida,

Majnuntollarning tol-tol kokillarida,

Ko`m-ko`k sarvlarning qubba uchida,  
Xurmolarning nozik yelpig`ichida  
To`lin oy nurlarin shopirib yotar.

Mumtoz kuy ohangiga berilgan shoira o`z ichki kechinmalarini ifodalashda masnaviy she`riy shaklidan ham foydalanadi:

Qayu kun muftalo bo`ldum, senga joni fido bo`ldum,  
O`zing gohi balogardon, gohi jonga balo bo`lding.  
Ulug` mulkingda shoh bo`ldum, ko`yingda bir gado bo`ldum,  
Ki hayrat darsida lol-u yana turfa sado bo`ldum.

Dastlab musammat she`riy shakli tarkibiga kiruvchi masnaviy keyinchalik alohida janr sifatida undan ajralib chiqdi. Masnaviy “ikkilik” degan ma`noni bildiradi: o`zaro qofiyalangan baytlardan iborat bo`ladi. Masnaviyda shoir o`z holi va dunyo ishlaridan hikoya qiladi. Voqeaviylik masnaviyniing xarakterli xususiyatlaridan biridir. Shu bois dostonlar, shuningdek, “hasbi hol” mavzusidagi she`rlar ham masnaviyda yoziladi.

Kitob sahifalarida shoira she`riy satrlarining rang-barangligiga guvoh bo`lamiz:

Bir tashvishdan nido ikkimiz,  
Bir quvonchdan sado ikkimiz,  
Iqbol va`da qilgusi faqat,  
O`tli muhabbat,  
O`tli muhabbat!  
Yoki:  
Olam gullarining muattarligi,  
Umrin yo`llarining munavvarligi,  
Bu yurak toshqinin muqarrarligi,  
Sevgingdan sening!

Shoira o`z she`rlarining birida umr ma`nosini anglatishda uch misralik bandlarda o`z fikrlarini bayon etadi:

Umr bu...

Umr –bu Allohdan bizga omonat,

Allohning farzi bor aziz jonlarda

Omonatga qilma hargiz xiyonat.

Umr –yombi oltin, bug`doy doniday,

Maydalama uni tegirmonlarda

Allohning farzi bor aziz jonlarda.

Yoki:

Ey, dunyo!

O`kindim –dardlarim majnuntol bo`ldi,

Yukindim –chechaklar bargi bol bo`ldi,

O`tindim –teraklar purxayol bo`ldi.

Shoiraning xalq ohanglarida yozgan she`rlarida xalq qo`shiqlaridagi kabi sodda va ravon uslub, xalqona ohang, qalb kechinmalarining samimiy jilosi, xalqona ruh, orzu - niyat, istak, tilak, maqsad kabilar o`z ifodasini topgan. She`r misralari qisqa misra va turoqlardan tashkil topgan:

Yor ko`ksingga taqib ol,

Chechaklar bo`layin-o!

Oshiq nigohingni sol,

Ipaklar bo`layin-o!

Yoki:

Sandiqcha-yu kursicha,

Kursichada musicha...

Sandiqchada oq ro`mol!

Oq ro`molning egasi

Ochilmagan gul misol...

Shoiraning “Mullatosh qishlog`ida yashab ketgan Kavkazlik Mehrali cho`ponning sahargi ibodati”, “Yana shu cho`ponning qizi Gulposhshaning to`yida kuyovi o`zbek G`afurjonga deganlari”, “Xayrlashuv” kabi sarlavhasi ostidagi she`rlarida cho`pon va uning qizining hissiyot- kechinmalari hikoya tarzida

xalqona ohangda yozilgan. Maqsud Shayxzoda ta’biri bilan aytganda, “chopag`on nazm”da intim tuyg`ular tasviri yana-da jozibaliroq ko`rinadi, ravon o`qiladi-yu tez ko`ngilga ko`chadi:

Kindik qonim tomgan

Yerlarga yetsam.

Vujudim sog`ingan

Nurlarga yetsam.

Ko`zlarim yarq etib

Ochilar shu on.

Qaytadan tug`ilar

Mehrali cho`pon!

Qasida istiloh sifatida “qasd qilmoq”, “niyat qilmoq”, “ko`zlamok” ma’nolarini bildiradi. Sharq mumtoz adabiyotida qasida biror shaxsning (ko`pincha hukmdorning) madhiga bag`ishlangan, tantanavor uslubdagi she’r sanaladi. Hajmi 20 baytdan 200 baytgacha bo`lishi mumkin. G`azalga o`xshab qofiyalanadi (aa, ab, va,...). Kompozitsiyasi g`azalga nisbatan murakkab bo`lib, nasib, guzirgoh, madh va mamduh kabi qismlardan iborat. Mazmuniga ko`ra, qasidayi bahoriya, qasidayi ishqiya, qasidayi holiya, qasidayi faxriya, qasidayi hajviya kabi ko`rinishlarda bo`ladi. Bugun zamonaviy o`zbek adabiyotida qasida ham mazmunan, ham shaklan o`zgarib, yangi ufqlar ochilib bormoqda. Bunda O.Hojiyevaning ham o`ziga xos o`rni borligini ta’kidlash joiz. O.Hojiyeva ham qasida janrida barakali ijod qilgan. Uning “Istiqlolga qasida”, “Buxoro taronasi”, “Buyuk karvon” qasidaları bu janrning ajoyib namunalari hisoblanadi. “Buxoro taronasi”ni Buxoroning 2500 yillik to`yiga bag`ishlaydi va unda shoira ona shahrini madh etadi. Bunda masnaviy she’riy shaklini tanlaydi:

Iymon bilan yodlagaymiz Buxoroni

“Qubbat-ul islom” kabi ko`ngil oroni.

Istiqlolga bag`ishlagan qasidasida esa vatan, istiqlol, vatan tinchligi, istiqlolga erishuvdagi fidoyilar jasorati madh etilib, istiqlolga umrboqiylik – “boshi

toshlik” so`raladi. Qasida barmoq vaznida yozilgan bo`lib, besh va to`rt misralik bandlardan iborat:

Sen vatanga kuzgi bug`doy hosili,  
Armonlarning guli – eng boy hosili,  
Har g`ishtingda qancha o`q-yoy hosili,  
Shahidlarning hurligi a`mol senga,  
Boshi toshlik so`ray, Istiqlol senga!

Yuqorida qasidaning mavzusiga ko`ra qasidayi faxriya kabi ko`rinishi ham borligini aytdik. Faxriyalar mumtoz adabiyotda o`z ijodidan faxr-g`urur hissini tuyish natijasi o`laroq yozilgan bo`lsa, bugun nafaqat o`zi, balki o`ziga tegishli va o`zi mansub bo`lgan narsalardan ham faxrlanish hissi tufayli yozilmoqda. O.Hojiyeva ham “O`zbekistonga faxriya” va “O`n ikki bahorim” faxriyalarida vatanni madh etadi, o`zini shu vatan bag`rida yashayotganligi, istiqlol tufayli tobora o`zgarib borayotgan diyorning baxtli shoirasi deb bilganidan qalbi cheksiz faxr tuyg`usini tuyadi. Ushbu faxriyalar barmoq vaznida yozilgan, to`t misralik bandlardan iborat she`r sanaladi:

O`n ikki bahorim, o`n ikki yozim –  
Ozodlikning ikki metin qanoti,  
Xalqimga jo`r bo`lib ozod ovozim,  
Turibman erkinlik bolidan totib.

Shoira doston janrining ham go`zal namunalarini yaratdi. Uning “Najot” dostoni Alisher Navoiyga, “Ziyorat” dostoni esa xotira maydonini ziyorat qila turib jangda shahid bo`lgan akasi va u orqali o`z onasi, oilasi, jangdagi shahidlar xotirasiga bag`ishlangan.

Ulug` ozodlikning shahidlariga  
Bag`rimda tikladim marmar lavhalar.  
Bugun istiqlolning shohidlariga  
Vatan sevgisidan so`ylasin ular.

### **1.3. Shoir she'rlarida avtobiografizm**

Shoir, yozuvchi hech narsani yangidan yaratmaydi. Balki hammasini hayotdan, odamlar orasidan oladi va yana shu odamlarning o'ziga qaytaradi. Biroq bu qaytarish shunchaki bo'lmay, o'ziga xos ovozda, betakror libosda, badiiy joziba, o'xshatish- jonlantirishlar bilan, go'yoki yangi bir ohoriy kiyimlar bilan bezab kitobxonga taqdim etadi. Ahamiyatlisi shundaki, bu yangi libos – yangi qarash faqat haqiqiy ijod ahli tominidan yaratiladi. Chunki ular hayotning boshqalar payqamagan, yoki e'tibor bermagan tomonlariga diqqat qaratib, hayot voqeligi-yu mohiyatini teran angelaydilar, tiriklik halqasidagi zanjirlarni bir- biriga ulay oladilar.

Ijodkor qalamga olayotgan mavzu va yo fikr uning o'ziga tanish yoki tanish bo'lmagan qaysidir bir inson hayoti ko'ngil kechinmalaridan yoxud shoiraning o'z hayotidan bo'lishi mumkin. O'z hayotidan olingan ana shunday ijod namunalarida avtobiografik element va unsurlar bo'lishi tabiiy hol albatta. Biz quyida shoir she'rlaridagi avtobiografizm belgilarini ko'rib o'tamiz.

Oydin Hojiyeva “Ko'zimning oq-u qorasi” to'plamidan joy olgan “U daftar” she'rida o'zining yoshlikda qilgan ilk she'riy mashqlari yozilgan daftarni opasidan, onasidan yashirganligini, undan akasining urushdan qaytmagani onasi dilidagi armon ekanligi, bir kuni daftarni onasi ko'rib qolib, o'qib mahzun bo'lgani-yu, yangi daftar keltirib, undagi qoralamalarningni yangisiga ko'chir deb aytgani haqida so'z yuritiladi. Yoshgina Oydinoy esa onasi dardlarini, jarohatlarini tirnagani uchun o'sha daftarni yoqib yuboradi:

Go'llik va qahr bilan

O'choqqa otdim barin.

Go'yo yondirgan edim

Onamning azoblarin!

Shoira onasiga bag`ishlab yozgan “Topinish” she’rida onasi qabrini tez-tez yo`qlay olmaganidan o`kingan shoira “Xoja Bo`ston” ziyoratgohini tilga olib o`zi tug`ilgan “Bo`ston” qishlog`iga ishora qiladi:

Men uchun tushlarim oyga aylanib,  
Xayol – darvishlarim soyga aylanib,  
Ziyorat qilurlar Xoja Bo`stonni  
Siz men uchun o`ylaysiz ko`m- ko`k osmonni...

Shoira ko`pgina she’rlarida o`zi tug`ilib o`sgan zamin qadim Buxoroning zarga kon qizil tuprog`i – Qiziltepa va undagi ko`ngliga yaqin, ko`ziga issiq qishloqlar tasvirini chizadi. Zarmetandagi Hamrobobo xonadonida tug`ilgan bir qiz uchun shoiradan ismini so`rashganda jajji qizaloqqa bag`ishlab yozgan qutlovida Zarmetan qishlog`i tilga olinadi:

Beshigingda quchsa onajon sarxush  
Siniqqan sumbati oy bo`la qolsin.  
Osmonidan o`tsa zarga botib qush  
Zarmetan tilsimli joy bo`la qolsin.

Yoki kindik qoni to`kilgan Bo`ston qishlog`iga aytgan “Salomnoma”sida uni chorlayotgan Bo`ston bog`larining xabariga ko`ra qishlog`iga boraverishda butun tabiat-u avliyolarga salom beradi:

Tanidingmi meni, hay, Do`rmon ariq,  
Oqizoq nonga o`ch o`sha qizingman.  
Bo`stonim, beg`ubor, sodda bir qiziq  
Turgan – bitganim-la sening o`zingman.

Shoira hayotining katta qismi shahar (Toshkent) bilan bog`liq bo`lsa-da, u o`zi tug`ilib tetapoya bo`lgan hovlisi, bahor kelishi bilan bog`u bo`stonga aylanadigan “Bo`ston” qishlog`ini sog`ingan kezlarda shahar shovqinidan bezib tinch va osoyishta Bo`ston bag`riga shosharkan, yo`l tuyg`ularini qalamga oladi. Unda qadim Karmana, xaroba rabot, yo`l bo`yidagi sardoba, Malikcho`l tilga olinadi:

Shamollar cho`qigan xaroba robot,

Yakkakift turadi behol qariday.

Bir qatra kelajak, bir qatra hayot

Qadim sardobaning pinhon qa'rida.

Har kim ham ko`ziga-yu ko`ngliga yaqin narsalar, joylar, kishilar haqida gapiradi. Shoiram ham qalbgaga yaqin Qiziltepasi bilan yaqin qo`shni G`ijduvondagi Abduxoliq G`ijduvoniylarini maqbaralarini tilga oladi. Bu shoiraning ko`p marotaba uning ziyoratida bo`lganligining isbotidir.

Qaro ko`zingizda dard- firoq ko`rdim

Bedorlik degan hur qo`ng`iroq ko`rdim.

Hazrat G`ijduvoniylarini maqbaralarida

“Alif”day hayratli sas-so`roq ko`rdim.

Boshqa bir she'rida dorishunos hakim haqida yozib turib, uning “she'r o`qimagan kunim bir narsamni yo`qotgandek bo`laveraman” degan so`zlarini asos qilib oladi. Donishmand she'r o`qiganda tutga bol inishi-yu g`amgin buloqlarning ko`zi ochilishi, Fuzuliydan, Mashrabdan g`azallar o`qiydigan bu donishmandning ham g`ijduvonlik ekani, shoiraning yoshligi o`tgan pallalar, ulardagi o`zgacha taassurot o`laroq yodida qolgan. Bu ham uning yoshligi, tinglagan she'rlari va uning keyinchalik she'r yozishiga ta'sir ko`rsatgan omil ayni shu she'rdagi ifodalangan:

G`ijduvonlik hozirki tabib

Tab'i nazmi binoyi.

“Majolis-un nafois”ga

Yozgudayin Navoiy.

Shoiram bir she'rida “o`n to`rt kunlik oyday farishta payti” – bolaligini eslar ekan, oilada besh qiz opa-singil ekanligini, ammo opalaridan ikkitasi bevaqt olamdan o`tganini dilida chuqur o`kinch bilan xotirlaydi:

Ikki opam uchdi- ketdi qush bo`lib,

Qoldim ikki qit'am mangu bo`sh bo`lib.

Garchi to`rt tomonim el-u xesh to`lib

To`qqiz dunyo bilan to`lmas bu sozim.

Ikki opasidan ayrilganini shoira go'yo dunyo o'zining 2 qit'asidan ayrilgani kabi deydi. Shuningdek, qo'ldagi besh barmog'imning ikkitasida aqiq toshim yo'q degan tashbehlar bilan ta'sirli ifodalarga erisha olgan.

Sog'inch tuyg'usining kuchliligidan shoira o'zi tug'ilib o'sgan zamin nomini qayta-qayta tilga oladi va o'zi mansub el hunaridan faxr tuyg'usini tuyadi:

Buxor zardo'zlarin ko'z nuri yongan  
Zarrin qatimlarda palakka do'nsam.  
Bo'ston osmonida shamolga oshiq,  
“Qamish qobirg'ali” varrakka do'nsam.

Uy to'ridagi palak zarrin qatimlarining tovlanishi Buxoro zardo'zlarining yongan ko'zlaridir. Men Bo'ston osmonidagi shamolga oshiq bo'lgan varrakka do'nsam, deydi shoira.

“2003- yil qor xati”da shoira o'zi bilgan, tanigan va yaqin maslakdosh bo'lgan do'st-u dugonalarining nomlarini bir-bir tilga olib ularni o'z uyiga taklif etadi. Bunda mamlakatimizning har viloyatidan chaqirilajak mehmonlarning xarakter- xususiyatlari ham ta'riflanadi va yakunda shoira o'z manzilini Toshkentda ekanligini aytib, ularni yangi yilda yozilajak dasturxonga chorlab qoladi:

Kelsangiz-chi boshimiz osmondadur,  
Manzilim: Toshkent “Buyuk Turon”dadur,  
Yetsa molim, yetmasa – jonlar fido  
Sizga mezbonlik qilurmiz, marhabo!

Bunda shoiraning 2000- yillarda Toshkentning Buyuk Turon ko'chasida yashaganligini bilib olamiz.

“O'zbekning yozi” she'rida O'rtacho'lning kengish etaklari-yu, Zarafshon daryosining chimtol yoqalari tilga olinadi. Shoiraning aksar umri shaharda o'tgan bo'lishiga qaramay, u yoz deganda o'zi ko'p bora yozning jaziramasini o'tkazgani qishloq xayoli uni o'sha O'rtacho'l-u Zarafshon havosini yodga soladi:

O'rtacho'lning kengish etaklarida  
Qirg'ovul patiday to'zgan lolalar.

Javzo shamolining etaklarida

Dur boshog`in egar bug`doy dalalar.

“O`n ikki bahorim...” faxriyasida ozodlikni alqab hur kunlarga madh aytadi. ozodlikni ruhimda sayragan qushim, ko`nglimda o`sayotgan nay deydi. Va ko`ziga surajak ona tuprog`i Raboti Malik xarobasidagi navnihol, Karmana sardobasidagi hur shabbodalar aytgan munojotida ozodlikning butun bo`y- bastini ko`radi:

Raboti Malikning xarobasida

Qaytadan ko`klagan navnihol hayot,

Qadim Karmananing sardobasida

Sarrin shabbodalar aytgan munojot,

Sensan ozodlik!

“Tashrif” she`rida o`lkaga kirib kelgan bahor nishonasi nimalarda va qanday ko`ringanini rassomday serjilo tasvirlay olgan. Bunda ham rassom mo`yqalami xaritadan eng avval tug`ilib o`sgan muqaddas tuproqni topishining guvohi bo`lamiz:

Attor qutisida yo`q bo`yoqlarni

Malik cho`llargacha chaplagan mohir.

Hatto Qizilqumday qoq tuproqlarni

Yashnatgay sochilib maysa-javohir.

Shoira sirdoshi, qadrdoni Nozik Qo`ziyeva xotirasiga bag`ishlab yozgan “Aytim”ida uning erta vafot etgani, sarvigulday qomati egilmay turib, uch qizining ko`z yoshlari soy bo`lgani haqidagi alamli o`ylari o`z ifodasini topgan. E`tibor beradigan bo`lsak, ushbu she`rda shoira dugonasini eslash barobarida o`zi ulg`aygan, sochini belida o`ynatib yurgan qishloqlari – G`oyibon, Navgandi, Bo`stonlarni tilga oladi:

Uch qizini orqalab qaddi obkash yoy bo`ldi,

Navgandi bog`larida ko`z yoshlari soy bo`ldi,

Turmushning tosh yo`lida bir salt-u suvoy bo`ldi,

Gurunglarga kirganda suvday sokin Nozikoy,

Shohi-shalpar kiyganda oydan oydin Nozikoy.

Shoira mustaqillik bayrami oldidan ilk vatani – beshigi tebrangan ostona tomon kelar ekan, mustaqillik bayrami kishining o'z vatanida, ya'ni kindik qoni tomgan muqaddas maskanda yana-da totliroq bo'ladi, deydi. Buxoroga yo'l olay, chunki u yerdagi Oydinbog'da odamlar jam bo'lib turgandir, deydi. Shoiraning Buxoroga yo'l olishi sababi u yoshlikdanoq Qiziltepani Buxoro tarkibida bilib, Navoiy va Buxoro hududlarini yagona hudud – vatan sifatida Buxoro nomi bilan ataydi. She'rdagi Qiziltepadagi jang izi qolgan xarobot – Shahribarbar, Zarafshon, Tudako'l, O'rtacho'l, Zarmetan, Xoja Bo'ston kabi joy nomlari tilga olinadi:

Zarmetanning hofizlari

“Bale murg'ak”dan olar.

Xoja Bo'ston qizlari

“Mayda-maydak”dan olar.

“Elim” manzumasi Shahrivayron tepalar, O'rtacho'l, qiziltepalik baxshi Said Murod Panoh o'g'li nomlari bilan boshlanadi. “Buxoro taronasi”da ham Zarafshon daryosi, Zarmetan qishlog'i tilga olinadi.

Shoira “Tavallud taronasi”da onayizori Toshbibini nomini tilga olib, uning o'g'li mozarini izlab chekkan dard-u azoblari, bir kaftgina xokin quchib jon berish orzulari haqidagi o'ylari tasviridan shoiraning onasining ismi Toshbibini bo'lgani va bir akasining bevaq vafot etgani haqidagi ma'lumotlarni bilib olamiz:

Boshim silar tog'day buyuk

Daryo kabi sokinginam.

Yuzi issiq, bag'ri kuyuk

Toshbibijon otinginam.

Akasining urushga ketib, janggoh shahidi bo'lganini shoira “Ziyorat” dostonida ham aytib o'tadi. Bunda shoira xotira maydonidagi zarhal harflar bilan yozilgan akasi nomini o'qishini aytadi:

Onam qirq yil izlab, bo'zlagan darak,

Otamning qaddini bukkani dard, fig'on.

Po'lat sahfalardan misli guldirak,

Ovoz berib chiqar akam – Ne’matjon!

Shu o`ylari davomida shoira doston yozilgan vaqtda ota-onasining oltmishdan oshganligiga ishora qiluvchi bir misra keltiradi:

Bolam deb ohista qo`zg`aldi ona

Ikkisi oltmish yil bedor ko`rindi.

Bunda farzandi yo`lini poylab, ota-onaning oltmish yil bedor, halovatsiz turmush kechirgani haqidagi qayg`ularining alamli ifodasi aks etgan.

Dostonda xotiralarga berilar ekan, o`zi tetapoya bo`lgani, qadrdon go`shasi – Bo`stonni ham yodga oladi:

Otamning har bahor armon daraxti –

Gullab, meva tugib chorlagan Bo`ston.

Shoira “Kelinni ko`rganda” she`rida ham onasining kelinini ko`rib, o`g`lini yodga olgandagi iztiroblarini qalamga oladi. Kelinining o`g`lisiz o`tkazgan kunlariga, o`g`li uchun belbog` tikkan qo`llariga sadqa bo`lishini aytgan ona endi o`g`lining o`g`illari – nevaralari bilan tasalli topishi kerakligini ta`kidlaydi shoira. Jangda halok bo`lgan akasining yodi yuraklarda barhayot ekanligini aytib, onasiga tasalli beradi:

Bundagi o`g`lonlarni

Toychog`im de, erkam de,

O`g`lim yetmagan baxtga

Yeta olgan bo`tam, de!

Oh tortmagil, onajon,

O`zi dardkash qalbingga

Yuk ortmagil, onajon...

“O`zbekiston” she`rida vatan deganda u eng avval Bo`stonni ko`z oldiga keltirishini aytadi:

Men seni o`ylaganda

Bo`stonlarni kashf etdim.

Xayol qushi izlagan

Makonlarni kashf etdim.

Shoiraga o`zi mansub bo`lgan zamin, kindik qoni tomgan tuproqning cho`llari-da jannat bog`lariday orombaxsh bo`lib ko`rinadi. U yerdagi har giyohga mehri bo`lakcha. Shu bois bo`lsa kerak Malikcho`lga bag`ishlagan bir she`rida mehnatkash xalqining cho`ldagi manzarasini chizadi:

Cho`ldagi xo`p ajib, chinakam doston,

Uning har satrida jasorat, sabot.

Xalqim ijodidan dovuqli nishon,

Malik cho`llarida qaynagan hayot!

Shoira cho`ldagi shijoat-u matonatning buyuk surati – cho`lda qilinajak og`ir dala mehnatini bunyodkor xalq ijodidagi buyuk bir doston deb baholaydi. Bundagi har misra xalqning jasorat-u fidoyilik namunasi ekanligini ta`kidlaydi.

### **Bob bo`yicha umumiy xulosa**

O`zining nafis va mayin she`rlari, tug`yonli dostonlari bilan kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan O`zbekiston xalq shoirasi Oydin Hojiyevaning toza qalbidan jo`shqin, ohori to`kilmagan, quyma satrlar poeziyaning she`r, manzuma, qasida, doston, she`riy qissa, esse - xotirot, to`rtliklar bo`lib dillarga ko`chdi. Shoira, asosan, barmoq vaznida ijod qildi. She`riy shakllar borasidagi izlanishlari natijasida uch va besh misradan iborat she`rlar yozdi. Shoira doston janrining ham go`zal namunalarini yaratdi. Ko`rib o`tganimizdek, shoiraning deyarli har bir she`rida avtobiografik elementlar uchraydi.

## **II bob. Oydin Hojiyeva she'riyatining badiiy xususiyatlari**

### **2.1. Shoiri she'riyatining mavzu va obrazlar olami**

Oydin Hojiyevaning deyarli barcha to'plamlarida pokiza va mehribon, kechirimli va sadoqatli ona tuyg'ulari, vafodor yor, didli, farosatli va nozikta'b shoiri qalbi jo'sh urib turadi. Ayni chog'da dunyo voqealariga hamdardlik, insonlar mushkulini yengillashtirish uchun kurash, o'z ona xalqi, ona tuprog'i, madaniy merosiga mehr yangrab turadi.

Vatanga muhabbat, ma'naviy poklik, til bilan dil rostligi, hayotning abadiy va unutilmas orzu-armonlari, inson matonati, xalqning beqiyos, go'zal, olijanob qalbini kuylash, odamlarga munis, mehribon dardkash bo'lmoq istagi shoiri she'riyatining bosh mavzusi hisoblanadi. Shoiri 90-yillarda vatanparvarlik mavzusida turkum she'r va dostonlar yozdi. Badiiy ijodni ijtimoiy faoliyat bilan qo'shib olib borgan shoiraning "Ruhimizga yong'in tushmasin", "Meni iztirobga solar bu o'ylar", "Millatning qayg'usi nima?" kabi publitsistik asarlarida til masalalari, o'zbek xotin-qizlarining og'ir dala mehnati muammolari aks etdi. Mustaqillik shabadalari esa boshlagach, shoiri she'riyatining mavzular olami istiqlolni kuylash, xalqining ozodligini tarannum etish, hurlik tuyg'usidan faxrlanish va shukronalik mavzulari bilan yana-da boyib bordi. Quyida ana shu mavzularning Oydin Hojiyeva ijodida qanday mazmun va ifoda orqali berililishini kuzatamiz.

#### **Oydin Hojiyeva she'rlarida vatan mavzusi talqini**

Lahzalik nafasdan mazmun topa olgan Oydin Hojiyeva satrlariga sinchiklab qarasak, ular qatiga yashiringa ma'no nafaqat chiqur ilm, teran nigoh balki, sodda bir qishloq qizi, farzandining o'zi tetapoya bo'lib o'sgan muqaddas go'sha, ona tuproqqa bo'lgan o'zgacha mehr, chuqur, samimiy va pok muhabbatni ko'ramiz. Bu ayniqsa, shoiraning vatan mavzusidagi she'larida yaqqol aks etgan. Vatan madhini dildan chiqqan dildosh taronalarda kuylagan shoirlar ko'p, albatta. Masalan, atoqli shoirlarimizdan, noyob badiiy topilma – tashbehlari bilan she'rxon qalbini zabt etgan ijodkorlarimizdan Hamid Olimjon vatanining tabiati, yashil vodiylari-yu azim

daryolarini kuylasa, Abdulla Oripov ko`proq uning tarixi, ajdodlar qoldirgan buyuk meros, ular qilgan buyuk jasorat, tengsiz fidoyiliklarni qalamga oladi. Oydin Hojiyevada esa vatan mavzusi ma`lum doira yuzasida emas, balki vatanini butun borlig`i bilan sevgan, haqiqatan uning uchun jonini fido qila oladigan, vatan ishqini bilan yonib yashaydigan bir inson qalbida nimaiki bo`lsa, barcha-barchasini o`tli qalb harorati bilan qamrab olgan. Shoirani go`zal diyorining rang-barang fasllar jozibasi ham, aziz avliyolar, buyuk siymolar dahosi ham, Buxoroning naqshin eshiklar-yu O`rtacho`lda gullagan mehriyolar, somon yo`li sochgan kumush ziyolar-u Ko`ktog` o`ngurida o`sgan sunbullar tilsimi ham o`ziga maftun etib, qo`liga soz olib kuylashga undagan. Aslida shoira qo`liga qalam tutqazgan ham ana shu betakror ona yurt jozibasi, latofati, go`zalligidir. U o`z ona tuprog`ining quyoshiga, quyoshdek qaynoq qalbli insonlariga, sahar-u shomiga, sahar-u shomidek totli ne`matlariga cheksiz mehr-muhabbat bilan qaraydi. Umr bo`yi ularga shaydo bo`lib kelgani, savdoyi oshiq kabi hamon yurt ishqini kulayotganining boisi ham shunda.

So`ramangiz qayda deb mushtok ko`nglimda vatan,  
Men o`tar bo`lgan yuksak porloq yo`limda vatan,  
Baxt qushiday ardoqli har choq qo`limda vatan,  
Mehr-u ixlosdan ravshan chaqnoq ko`zimda vatan.

Shoira maftunkor o`lka ziyosidan ko`zlari qamashib, qo`llari qalam bilan doim topishib yuradi. Vatan deganda uning ko`z oldiga sunbula suviday tiniq bir ayol, uning ro`zg`or deb atalmish g`or ichida chiroqday porlagan qirq bitta joni keladi. Vatanini ana shunday farzandlariga mehribon, jafokash va jonkuyar ayol siymosida ko`rgan ijodkor vatanining chekkan alam-u iztiroblari rohatini ko`rishini istaydi. U o`z ohanglarida vatani, o`zbek millatining hech kimga o`xshamagan fazilatlarini baralla kuylaydi. Mehmoniga borini, dushmaniga to`rini bo`shatib beruvchi, beshikdagi go`dagini, qo`yingki, qirdagi echki-ulog`ini sizlovchi bu el asli mehnat farzandi ekanligi, bunyodkorlik, yaratuvchilikdan charchamasligini bot-bot qalamga olaveradi:

Ko`z tikmaydi o`zgalarning yeriga,  
Tomir yoygan adiriga-qiriga,  
Qulday sodiq ketmon degan yoriga,  
Shukur qilar peshonada boriga,  
Uni shunday shoir qilib yaratgan,  
Bir jannati sobir qilib yaratgan.

Shoira shuningdek, vatan chizgilarini buyuk qoya, baland tog`lari ustida raqs tushayotgan baxtiyor hur qizlari, o`zbekning o`zligi nishonasi bo`lgan yashil moviy va oq yolqin bir bayroq husnida ko`radi.

Ijodkor o`zi tug`ilib o`sgan ko`hna diyor, muqaddas zamin – O`zbekistonga faxriya yozar ekan, uning shonli o`tmishidan dam faxr tuyg`usini tuysa, dam ko`nglida og`riq, achinish hissini tuyadi. Bulbullar chah-chahiga to`lgan o`lka bahri muhit ichra sadaf donaday sovuq nafasli qahrli yovlarga duch keldi-yu ko`ksi g`am omochiga shudgor bo`ldi. Ammo bu el, bu yurt sabr - toqat bilan sinovlardan iymonini but saqlab, omon o`ta oldi:

Ey, toqat farzandi, bug`doy so`zligim,  
Ey, sabru sitamga sevgili o`lkam.  
Nasl-u nasabli el, sha`nim, o`zligim,  
Bugun qahramonsan, go`shangda bayram.

Shoira istiqlolga murojaat qilib unga qasida bag`ishlar ekan, vatani tarixini qalamga oladi. Istiqlolgacha bo`lgan xalq hayoti, turmushi, erk yo`lidagi fidoyiliklar, mozor kulin sochgan yovlar qilmishi, xalq kechmishini bir-bir ko`z oldidan o`tkazadi. Istiqlolning boshini toshdan bo`lishini niyat qiladi. “Elim” manzumasida O`rtacho`lning ko`rpaday qizg`aldoqlaridan, xinalik kaftlarda ochilmish lolalardan, halvopazlar san`ati-yu lapar, o`lanlar jarangidan qalbi bir olam quvochga to`lib, shukronalik va faxr tuyg`usini tuyadi:

Aylanayin, ona elim,  
Dong`il maydonlaringdan.  
Aylanayin Buxoroday

Qadim bo`stonlaringdan.

Shoira istiqlool bergan Erk nash'a- sururi yurtda abadiy qolishini, yurtning "tog`day yelkalari"ga Xizr qo'llarining tegishini, xalqimizga ko`z tegmasligini chin dildan istaydi va shu tuyg`ularni satrlar bag`riga tizadi. U kelajak avlodlarga murojaat qilib, erk darxtining mangu yashnab turishi uchun hamisha hushyor bo`lishga chaqiradi. "Bog`-u bog`chalari jannat havoli" bo`lgan ona vatanini o`tli qalb harorati bilan kuylagan Oydin Hojiyevaning samimiy satrlari millionlab ko`ngillar qasrini zabt etdi.

### **Oydin Hojiyeva she'riyatida istiqlool mavzusi**

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, shoir-yozuvchilar ijod daftarining mazmun-mundariyasi ham o`zgardi. Endilikda ular erkka tashna dil torlarini chertmay, hurlik nasimlari, tinchlik shabadasidan ko`ngli tozargan, yuragi misoli chiltor bo`lgan elning quvonch va shukronalik duolarini tilga ola boshladilar. Bu duolar bugun bunyodkorlik, o`lmas qadriyatlar va milliy an`analarga sodiqlik, ulug` ajdodlarga munosib vorislik tuyg`usi bilan faxrlanish, tinchlik va do`stlik ramzi sifatida xalqlar do`stligi, millatlararo totuvlikka munosib hissa qo`shish, ilm-tafakkur cho`qqilari, jahon arenalarini zabt etmoq ruhidagi faxr tuyg`usi, o`zlikni anglash yo`lidagi dilxush navolar jarangi bilan to`lib bormoqda.

Oydin Hojiyeva ham istiqlool davri she'riyatida ana shunday ohang bilan kuyladi. Mustaqillik yillarida yozgan deyarli barcha she'rlari erk, ozodlik, hurlik so`zlari-yu, qalbda ana shu tuyg`u haroratiga yo`g`rilgan. Agar u istiqloolgacha:

Dard-u balosiga o`zi oshiq el,

Kuygan qo`shiqchi-yu, suygan tilanchim.

Ichganiga ko`z yoshi qorishiq el,

O`zi bek, o`zligiga bo`lgan tilanchim, -

deya o`kingan bo`lsa, endi istiqloolning musaffo quyoshi ostida baxt qo`shig`ini yurakdan to`lib-toshib kuylaydi:

Poyingda shu jannat tuproq istiqlool,

Boshingda bulutsiz samo hurlikdir.

Beshigingda chaqnab yotar istiqbol,

Mustaqillik tili, dili birlikdir.

Shoira bir she'rida necha yillik mutelikdan so'nggi, qurbonliklar, fidoyiliklar evaziga erishilgan istiqlol qarshisida turgan yoshgina tajribasiz bir yigit timsolidagi O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi dastlabki kunlarini tasvirlaydi:

Ko'zlari qamashib aylanib boshi,

Turodir istiqlol chorrahasida.

Eski majruhlari esiga tushib,

Qolar goh iztirob iskanjasida.

Kimningdir qoni, kimningdir joni evaziga qo'lga kiritilgan asriy orzular tantanasi bo'lib kelgan istiqloolni xalq erkin, hur hayotining yangi sahifasi sifatida obi najotga tashbeh qiladi, uning yurt tuprog'ida mangu ildiz otishini istaydi:

Qadim chinorlarning ildizlariga

Singisin istiqlol obi najoti.

O'lmas minorlarning yulduzlariga

Aylanib porlasin oydin hayoting.

Shoira vatani istiqlolini, porloq istiqbolini ko'rolmaydigan, tinch kunini buzmoq qasdida yurgan g'animlaridan yurtni himoya qilmoq uchun Istiqlolga ko'zmunchoq bo'lishga tayyor. Uning aytajak so'zi ham, ahdi, maqsadi ham shu – vataniga munosib farzand bo'lib, unga sidqidildan xizmat qilish, uning sha'n-u shavkatini himoya qilish, asrash sanaladi:

So'zim bor – savashda qilich bo'loli,

Shaxdim bor – quvvati birinch bo'loli,

Yaxshi-yomonningda ilinj bo'loli,

Ipak jonim metindan sinch bo'loli,

Seni yomon ko'zdan asramoq uchun.

Boisi bu hurlik o'z-o'zidan kelgan va yo birov uni o'zbekka in'om etgan emas. Ozodlik uchun qirg'inlarda boshi uloq bo'lgan kim, Qadr kechasida non emas, nur so'rab yig'lagan kim? Mustaqillik guli "beklari har yonga to'zg'igan",

“bosmachi-yu quloq” boʻlgan elning fil bardoshlari, qanoati, erk deya bagʻrini tigʻlaganlar qonidan oʻsib chiqdi. Shoira sheʼrlarida ana shu yoʻlda qurbon boʻlgan bobolar nomi eslanadi:

Qodiriyning mahzun koʻzlari aytsin,  
Nosiriyning pari soʻzlari aytsin,  
Ajdodlarning ulugʻ qarzlari aytsin:  
Ona Turkistoncha yigʻlagan yoʻqdir,  
Ozodlik deb oncha yigʻlagan yoʻqdir.

Shoira fikricha, istiqlol fidoyi oʻgʻlonlari, Erkin Vohidov taʼbiri bilan aytganda, “koʻkragida togʻ koʻtargan, tanti, mard” pahlavonlarining tengsiz jasorati, shahdidan, ana shu jasur temirtanlar nomidan kelib chiqqan:

Zulmat devlarini yenggan temirtan,  
Fidoyi mardingni qutlagan vatan.  
Ozodlik va hurlik yulduzin asli,  
Sen uning ismida topgansan, zotan.

Shoira nazdida istiqlol – bu tarixning imtihoni. Bu imtihondan kim, qanday oʻta oldi? Kim shu ozod va obod vatanni qurmoqqa bir xas keltira oldi-yu kimlar tomoshabin boʻldi? Oydin Hojiyeva bu yoʻlda Fitrat-u Choʻlpon singari millatparvarlar izidan borib, qoʻlga kiritilgan hurlik tugʻini asr imtihonidan eson-omon, yorugʻ yuz, buyuk shon bilan olib oʻtish lozimligini taʼkidlaydi:

Har bitta yurakda sas bersin Choʻlpon,  
Fitratlar yuksalsin metin joningda.  
Tishingga mahkam bos, olib oʻt omon  
Istiqlolni asr imtihonidan!

Ulugʻ va shonli oʻtmishi, buyuk ajdodlariga munosib izdoshlik tuygʻusi vatanning buyuk va porloq istiqboliga qoʻyilgan mustahkam poydevor qoʻyilganligidan faxr tuygʻusini tuyadi, sevinchdan onajon yurtini, bolajon yurtini alqaydi. Kelajakka ishonch bilan qaraydi:

Tugʻli, tugʻrogʻli el, ey oliynishon,  
Yaxshiga yaxshilik savlatim manim.

Yaxshingga buyursin bu qutlug` unvon

Kelajagi buyuk davlatim manim!

Dunyoda o`zbekning o`zligini ko`rsatadigan, uning o`z nomi, jasur o`g`lonlari, shirin so`zi, mehmondo`st va mehdaryo xalqi bor. Shoiraning shu xalqqa mehri tomirida oqayotgan qondan-da qutlug`, olayotgan har nafasidan-da azizroq, balandroqdir. Shu boisdan ham shoira qayta maysa bo`lib ko`karganida ham, istiqlol qasamini aytib shu muqaddas yurt tuprog`ida ildiz yoyishini aytadi:

O`tsak, maysa bo`lib ko`klarmiz, qayta,

Istiqlol, istiqlol qasamin ayta.

Ozod ruhimizda porlar tun, kunduz

O`zbekiston degan abadiy yulduz!

Shoir xalqini oldinni ko`ra biluvchi karomat sohiblari deyishadi. Darhaqiqat, istiqlolning dastlabki kunlarida Oydin Hojiyeva aytgan ruhimizda mangu porlab turguvchi O`zbekiston degan yulduz bugun koinot ichra O`zbekiston nomidan Samarqand yulduzi bo`lib porlab turmoqda. Shoiraning baxti ham ozod ruhidagi yulduzning o`ziga bek o`zbek xalqining ramzi sifatida koinotda porlab turganini ko`rganidadir. Shundan bo`lsa kerak, shoira saylanmasining 3- bo`limida istiqlol davridagi ijod namunalaridan guldasta tuzib, uni “Shukrona” deb ataydi.

### **Oydin Hojiyeva she`riyatida ayol obrazi**

Qo`li qadoqlarga, ko`ngli sadoqatga, cheksiz mehr-u saxovatga to`lgan, hayo to`la ko`zlari vafoli boqqan, oilam, bolam deb qirq bir jonin o`tga yoqqan, har so`zida mehri daryoday oqqan, ko`zi to`la muhabbat, yuzida xayr-u shafqat, bosgan qadami qutlug`, nomi har nedan ulug` o`zbek ayoli har bir ijodkor ijodida yangicha bo`yoqlar bilan tasvirlanadi. Go`yoki har ijodkor asarida bitta yangi atlas kiyib, boqiy va ezgu fazilatlar bilan jilolanadi.

Oydin Hojiyeva ham goho o`z onasi, goho Toshhovlidagi 40 kundosh, goh qo`shni sarvar xola, goh o`zi ona bo`lib yoki onalar tilidan duolar aytib, o`zbek ayolining turli rangin fazilatlaridan guldasta tuzadi. Shoira bir zum beharakat turmagan, daryoday to`lib oqqan, umrida salqin istab, issiq tusab

yurmagan, butun umr farzandlarim deb, sarg`aygan onayizori Toshbibu buvinu  
qo`shig`ini eslaydi:

Qizil gul bargiday boylanayin men,  
Senga balogardon saylanayin men.  
Unib, o`s ko`zimning qorachug`ida,  
Atrofingda kunday aylanayin men.

O`zbek ayoli, o`zbek onasi asli shunday: har vaqt farzandga jonini  
bermoqqa tayyor, barcha balolarga o`zini ro`baro` bo`lishini xohlaydi, yaqinlariga  
doimo omonlik tilaydi. Ana shunday insonlar qatorida shoira o`zining o`tkir qalam  
sohibi bo`lib yetishuvida xizmati, mehnati singgan ustozlari Zulfiya, Saida  
Zunnunovani dilida mamnunlik hissi bilan xotirlaydi. Go`zal inson, yuksak  
e`tiqodli shoira Saida Zunnunovaga yozgan bag`ishlov she`rida ko`proq uning  
ayollik, insoniylik fazilatlariga urg`u beradi:

Ma`shuqalar sayr etganda bir gulu zor ko`rinsa,  
Sadoqatdan saboq aytib bulbuli zor ko`rinsa,  
Ko`ngli nozik, mehri issiq, gulshanda yor ko`rinsa,  
Ham g`amzali, ham iboli, ham ustuvor ko`rinsa,  
Shu hayotning Saidasi, alvon so`zli sozi shu.

Parchada tashbeh san`tidan foydalanib Saida Zunnunova gul yuzli  
go`zalga, sadoqatdan saboq aytgan bulbulga o`xshatiladi. G`amzali-yu iboli, mehri  
quyoshdek issiq, darmon so`zli, rayhon so`zli ayol – bu men arvug`onlar bag`ridan  
izlagan shoira Saida Zunnunovadir, - deydi muallif.

Shoira metin irodasi, sabr-u bardoshi, qanoat-u matonati cheksiz,  
sadoqati tengsiz o`zbek ayolining jangga ketgan eriga vafosini, chekkan mehnat-u  
zahmatini qalamga oladi. Kun ishlab, tunda muk tushib kashtasini tikadigan  
kelinchak go`yo zim-ziyo tunda nur taratgan shamga tashbeh qilinib, ignani chitga  
emas, o`z ko`ksiga urgandek tasvirlanadi:

Darchadan sirg`alib kiradi shamol,  
Go`dak kabi hayron qotar yo`lakda.  
Sham kabi nur sochib ul sohibjamol,

O`zin ko`ksigami so`zan urmakda?

Ayol qulog`i bilan sevadi, deyishadi. Bu ayni haqiqat. U juda nozik va shu qadar buyukki, bir og`iz so`z bilan unga butun dunyoni berish mumkin, birgina so`z bilan dunyosinida yo`q qilish mumkin. Sabr, matonatga naqadar boy bo`lsa, shirin so`zga shuncha muhtoj bo`ladi. E`tiborsiz o`zini g`arib, yolg`iz sezadi. Kichikkina e`tibor, bir og`izgina shirin so`z uning qalbini zabt etishga qodir. Oydin Hojiyeva ayolning ayni shu fazilatini qalamga olar ekan, ayolni sen uchun mo`jizaga aylanishini xohlasang, bir og`iz shirin so`z ayt, uning kerakligini his qilishi uchun hayotimda nonday zarur qo`shiqsan degil, deydi shoira:

Sen ayolga

Shohi ko`ylak olib berma,

Gulimsan, degil!

Afsonaviy qasr qurma,

Dilimsan degil!

Ayol qanchalik kuchli, irodali, matonatli bo`lmasin, baribir u o`z hislari oldida ojiz bo`lib qolaveradi. Shuning uchun ham qiz bola sevmasin ekan, deyishadi. Dunyonida tebratishga qodir ayol o`z hislariga qarshi chiqmoqqa ojiz. Xo`rlik, malomatga, yo`qchilikka chidashi mumkin, agar yonida ishongan, suyangan, o`zi suygan suyuklisi bo`lsa. Shoira ayolni nihoyatda sirli yaratiq ekanligini uning yuzi kulsa-da, qalbi duv-duv yosh tokishidan bilib olishimiz mumkin, deydi. Ayolning qalb oynasini sindirmoq, parchalamoq uning ma`naviy, ruhiy hayotiga nuqta qo`ymoq bilan barobardir. Shoira “Dasxat so`ragan qizga” she`rida xuddi shunga ishora qiladi:

Ayol uchun ziynat-u taxt,

Qimmat, qiron emasdir.

Yolchitmasa gar muhabbat,

Dunyo dunyo emasdir.

Shu boisdan ham farzand-u eriga butun hayotini baxshida qilmoqqa tayyor ayol ko`ngli hech qachon sinmasin. Guruch kurmaksiz bo`lmaydi deganlaridek, ayollar ichida dunyoning o`tkinchi hoy-u havaslariga berilib, or-nomus, andisha,

sharm-hayo kabi pokiza fazilatlariga eski sarqitlar deb qarab, oilasidan kechganlarga nisbatan shoira o'z nafratini ochiq ifoda etadi. Ularning farzand uvoliga qolib, Olloh qarg'ishiga duchor bo'lishi muqarrar ekanligini ta'kidlaydi:

Muhabbatning shirin sharobi ichib,  
Mevasin talx dedi, tufladi ayol.  
Dorulshafaqada uyqusi o'chib,  
Xarxasha qiladi bir go'dak uvol.

Shuningdek, shoira yuqoridagi holatdan farqli ravishda, dunyoda oilam deb yashovchi ayollarga bag'ishlov yozadi. Mo'mina ayollar uchun boshing yerga tekkuncha sajdalar qilsang oz, demoqchi bo'ladi:

To'rg'ay uyg'onmay turib,  
Tandir yoqqani uchun.  
Noz uyqusin sidirib,  
Sigir sog'gani uchun.  
Qaldirg'ochday qo'nishib  
Bolalari ayvonda  
Qolaverar, ul shoshib  
Ketgani-chun yobonga.

Tanti xalqning onalariga ipakday qo'llarining toshday qadog'i uchun, chala qolgan tushlarning butun charchog'i uchun, xasta joniga ora kirmaganlari uchun kechirim so'raydi. Xalq ohanglarida aytgan bir she'rida ayolning qudrati haqida so'z borib, bu qudrat uning oqilaligi, sarishtaligi, uddaburronligi, hushyorligi, jonkuyarligi, aqlliligi kabi jamiki ezgu fazilatlarining birlashuvidan kelib chiquvchi kuch ekanligini ta'kidlaydi:

Erni er qilur ayol,  
Qaro yer qilur ayol.  
Yurt so'ragan shohni ham  
Musofir qilur ayol.  
Chalma chalonging bo'lay,  
Challab olgoning bo'lay.

Ko`rinib turibdiki, Oydin Hojiyeva o`zbek ayolining azaliy ezgu va boqiy fazilatlarini o`ziga xos “Bo`ston ohangida” kuylaydi. Shoir tomonidan qo`llanilgan ta`sirchan ifoda va tashbehlarining sodda hamda betakrorligi she`rxon qalbidan munosib o`rin egallaydi.

### **Oydin Hojiyeva she`riyatida yor obrazi**

Muhabbat – bu hayotning ibtidosi, insonning, insoniylikning boshlanishidir. O`n sakkiz ming olamning aksi xaritaga tushmagan joy – yurak mavjlarida ko`rinadi. Jamiki mavjudotlarni bu dunyoda yashab turishi uchun ham muhabbat kerak. Yaratganning qaysi xilqati bo`lmasin, unda o`zi tug`ilgan tuprog`iga, yaqinlari, yor-do`stlariga bog`lab turuvchi muhabbat tuyg`usi bo`ladi. Bu tuyg`u Oydin Hojiyevada ham vataniga, yaqinlari, yaqinim deb bilgan butun o`zbek xalqiga, ulug` ajdodlari-yu ko`ngil o`g`risi – yoriga muhabbat nihollari yanglig` bo`y cho`zdi. O`zbek ayollarining hayoga burkangan qiyofasini ko`rsata olgan shoir yorga bo`lgan sevgisini baralla, ochiq-oshkora kuylamaydi. Sevgisini hadeb pisanda qilmaydi. Shu boisdan bo`lsa kerak, shoir yorga bo`lgan muhabbatini ham, murojaatini ham kam tilga oladi. Lekin aytganda ham ko`nglidagini aytib oladi. Shoir yorga murojaat qilar ekan, agar chindan sevsang, yuragingga muhabbat zilzilasin solaman, qalbdan sevsang, men ham hayotingga pok shu`la, yog`du kabi muhabbat beraman. Sevging abadiy bo`lsa, men ham senga umrim o`lchovichalik vafodorlik baxsh etaman, agar ahdingda turolmasang, jafodayin ayovsiz bo`laman, deya muqaddas tuyg`uga bir umrlik sadoqat talab qilib, ayni chog`da, o`zi timsolida vafoli, sadoqatli yor obrazi – o`zbek ayollari siymosini chizadi:

Sen hayotbaxsh bo`lolsang,

Tengsizdirman vafoda.

Ahdi yo`q, beburd esang,

Ayovsizman jafoday.

“Maktub” she`rida shoir oq bulut ortida oy mudragan kezlari onasidan pinhon qalbi sultoniga xat yozadigan, hayo pardasiga o`rangan qiz obrazida gavdalanadi. Qalbi dardlarini onasiga-da aytolmagan iboli bu qiz ming istihola

ostida qo'llari barg kabi titrab, yuragi kabutar kabi o`ynab, xat qatiga gul atridan  
sepib yozgan maktubiga yoridan o`zganing ko`zi tushmasligini istab, xatni yashirib  
o`qigil, deydi.

Senga xat biturman, har safar –

Barg misol titraydi qo'llarim.

Yuragim go`yoki kabutar,

Yo`l bo`lib to`shalar o`ylarim.

O`zbek qizlarining uyat-u andishaga o`raglan qiyofasini ishonarli va go`zal  
ifodalarda tasvirlay olgan shoira yor kelar yo'llariga ko`z tikkan, o`zi bir sas  
chiqarib aytolmaganidan, kelishini shabada orqali ayttirgan, yor vaslini o`zining  
sevinchi, ilhomini deb bilgan musulima qiz suratini chizadi:

Gullarning sinmagan rangidan

Bu ko`nglim yorishib boradir.

Kelsang, she'r yaralur yangidan,

Kelmasang, ilhomim poradir.

Birda dildan suyгани haqida gapirishga iymansa, birda yuragiga tushgan  
titroqdan faqat yorining yupantira olishini aytadi. Hur va sokin o`ylariga tug`yon  
solgan, shod va xurram kuylariga hijron solgan yorni charog`on manzirim, baxtim  
deydi:

Mening jon-u dilim o`sha,

Udir ko`ngil qo`yganim.

Charog`on manzirim o`sha

Udir baxtga yo`yganim.

Yorisiz umrining bahori yo`qligiga ishongan shoira vasl yo`lida nur  
tushmagan bir gul, toqatlari kul bo`lishga tayyor ekanligini aytadi:

Nur tushmagan bir gul bo`lay, mayliga,

Toqatlari kul-kul bo`lay, mayliga,

Bu yosh umrim bir pul bo`lay, mayliga

Hech jahonda sen kabi inkorim yo`q.

Shoira lirik qahramon – oshiq sifatida vasl umidida boʻlgan jonlarni qovushtirmoqqa mushtoq qilgan pok tuygʻu – muhabbatdan ilinj istaydi. Dengizdagi poʻrtanalar gʻalayon solgani kabi muhabbatdan ham sokinlikning koʻzlaridan uyquni quvib, oʻlinga ham, hayotga ham gʻolibona boqib bir-biriga intiq yuraklarning umr yoʻlini birlashtirishini soʻraydi. Oʻrtaga soʻz, taʼna, qasam tushmasidan sodiqlikka mehr-muhabbat kafil boʻlsin-u, bu muhabbatdan bir baxt yaralsin, deya shirin orzular qiladi:

Ey, muhabbat, ahil ayla mahbub dillarni,  
Sen oʻrtada hakamlik qil odil, boshafqat.  
Soʻng tamosho ayla ular oʻtgan yoʻllarni,  
Maftun etsin oʻz ijoding boʻlgan toʻkis baxt!

Yana bir sheʼrida shoira yor tasvirining ayol qalbidagi juda bir tiniq va goʻzal, nihoyatda shaffof holatini akslantiradi. Ayol uchun hayotining bor mazmuni, Yaratgandan keyingi uning eng suyangan, ishongan qalqoni, panohi ekanligiga ishora qilib, ayol hislarining hamma vaqt aqlidan baland turishini ifodalaydi. Olamning manguligi muhabbat kashfidan ekanligini taʼkidlab, yori bir mayoq singari ayol hayoti, koʻnglining shamchirogʻi ekanligini aytadi:

Bu olamning manguligi muhabbatning kashfidir,  
Kashfiyotlar osongina qoʻlga kirmish qaysi dam?  
Siz – tarona, siz – harorat, siz – yurakda yongan nur,  
Siz bir mayoq, shuʼlangizdan yorishmoqda koʻnglim ham!

Sevgi qanchalik kuchli boʻlmasin, insonning iymonidan, insoniyligidan ustun boʻlolmaydi. Shu maʼnoda shoira yoriga yer-u osmonda ortiq, jon-joningdan sevsang-da, iymondan kechma, iymondan ortiq sevma deb aytadi:

Tinglaganing barcha dostondan,  
Anglaganing yerdan, osmondan,  
Ortiqroq sev, sevgil jon-jondan,  
Faqat ortiq sevma iymondan!

Muhabbat koʻngilni poklaydi. Muhabbatdan suv ichgan koʻngil tozaradi, yasharadi. Muhabbat qanchalar sof, samimiy va chinakamiga boqiy boʻlsa, u

pokiza insoniy fazilatlar – ezgulik, go`zallik, hayo, andisha, vafo, sadoqat kabi tuyg`ular bilan yana-da boyib, mustahkamlanib, mukammallashib boraveradi. Shoiri shu ma'noda ko`ngliga yor ishqini solgani uchun vafo chechaklarini baxtdan masrur holda dastalagani holda ezgulik sha'niga tashakkurlar aytadi. Muqaddas tuyg`ular jilosidan tozargan qalblar uchun bu dunyoda qismat bir ekan, ular uchun shu qalb boyligining o`zi kifoyadir:

Bitta qismat bizga issiqda, qorda

Gulda, xazonda ham nasibamiz bir.

Olqishda, najotda, rohat, ozorda

Hayot ikkimizga bir xilda tatir.

Ko`ngil boyligidan-da totliroq ne'mat yo`q bu dunyoda. Shu bois ham sevgi atalmish totli tuyg`uning hayotbaxsh jilvalari quvuch bo`lib ko`zlarda porlaydi. Shoiri o`zini ana shunday baxtdan masrur bir oshiq sifatida qancha tirishsa ham, ko`zdagi sevinchini yashirolmaganligiga iqror bo`ladi:

Shodligim sen – tutay desam sir,

Eplolmayman – ayon ko`zimdan.

Sen – qalbimsan, dardimni axir,

Qanday pinhon tutay o`zimdan!

Shoiri o`zi oshiq bo`ladimi yoki oshiqlikni kuylaydimi barida bir xil samimiy, vazminlik bilan, ortiqcha dabdabalarsiz qalam tebratadi. Yuragidagi muhabbat olovi qanchalik kuchli bo`lmasin, uni bor ovozicha baralla kuylamaydi, olamga jar solmaydi. O`zbek ayollariga xos andisha va hayo chegarasida kuylaydi, lekin bu alangani batamom yashirolmaydi ham.

## **Oydin Hojiyeva she'riyatida tabiat tasviri**

Tabiat jamiki mavjudotlarning onasi, yaratuvchisidir. Borliqdagi neniki olmaylik, ularning bari tabiatning bir bo'lagi bo'lib hisoblanadi. Hatto insonni ham tuproq va suvdan yaratilgan, deyishadi. Shu boisdan bo'lsa kerak, inson tabiatsiz yasholmaydi. Tabiat insonga hayot beradi, uni butun hayoti davomida yediradi, kiydiradi. Shuning uchun inson ham jisman, ham ruhan o'zini tabiat bilan yaqin sezib, hayotida bo'ladigan barcha holatlarni tabiat hodisalari bilan bog'laydi. Oydin Hojiyeva ham tabiat tasvirini chizar ekan, uni inson kayfiyati, ruhiy holati bilan bog'laydi yoki inson ruhiyatini tabiat hodisalari orqali tasvirlaydi. Buning aksi o'laroq, shoira ijodida aynan tabiat go'zalliklari tasvirini chizishga bag'ishlangan she'rlar ham bor. Quyida ana shunday satrlardan biri bilan tanishamiz:

Oy suzadi jimgina,  
Yelpiydi uni shamol.  
Yulduzlar zina-zina,  
Lipillab ketar xiyol.  
Fonus misol suzar oy  
Yoritgani tun husnin.  
Uchraganda telba soy,  
Unga otadi o'zin.

She'rdagi sokingina bir tun tasvirlanar ekan, jonlantirish san'ati orqali undagi tun, oy, yulduzlar, shamol obrazlari harakatga keltirilib, ajib bir manzara yaratiladi. Oyning tunga, tunning oyga sokingina boqishi kunduzi mehnatdan horigan insonlarning butun vujudiga dam berib, sokingina o'ylar qurshovida o'tirishiga o'xshatiladi. Yer sharining aylanishi hisobidan oy xuddi o'z joyidan siljiyotgandek ko'rinadi ko'zimizga. Shoira buni tun bag'ridagi samoviy kenglik uzra oyning jimgina suzishi deb izohlaydi. Shamol esa oyni yelpiydi, yulduzlar ko'pligidan go'yo zinalar kabi ko'zni qamashtiradi, ularga qarab turganimizda biri boshqasidan baland nur sohib, yonib ketadigandek ko'rinaveradi. Oy fonusga tashbeh qilinadi. U fonus misol tun husnini yoritadi. Soyda – suvda oy aksi ko'ringanini shoira telba

soy uchraganda oy uning bag`riga o`zini otadi, deya tasvir bilan sokin bir tun manzarasining go`zal, san`atkorona ifodasini yaratadi.

Shoira “Qiyos” she`rida tabiat hodisasi va inson umrini parallel qo`yib, ularni bir-biriga qiyos etadi.

Sarg`ayibdi chinor barglari,  
Uzilmaydi chayir bandidan.  
Go`yo oldda bahor kunlari,  
Yashil libos kiyar qaytadan.

Bunda kuz kelib, barglari sarg`aygan chinorning sutday tiniq, bo`liq taniga qish nafasi tekkani bilan u qishning achchiq izg`irinlariga taslim bo`lmay, mehri issiq yozdan o`zini nur gulxaniga olishini so`raydi. Axiyri, qishning qahri ustunlik qilib, chinorning so`nggi bargi ham uchib tushadi. Shoira insonni ham toqatli, har qanday sinovga bardoshli, hadeganda qishga – yomonlikka, yomonlarga taslim bo`lavermaydigan chinorga o`xshatadi. Ba`zan g`aflat ichra qolganda esa irodasi sustlik qilib, binafshaday mo`rt va nozik bo`ladi, deya chinorning so`nggi bargi uzilgani kabi ba`zan insonning ham butun bardoshi tugab, haqsizlik oldida ojiz qolishini betakror tamsil orqali ifodalab bergan:

Inson ham shu: toqatli chinor,  
Hadeganda qishga bermas tan.  
G`aflat ichra qolganda ba`zan,  
Binafshaday mo`rtligi ham bor!

Shoira “Avgust kunlari” she`rida yozning oxiri kuzning dastlabki kunlari tasvirini chizar ekan, yozning mehrli taftidan qizargan, shirinligi ming chandon ortgan mevalar, xususan, “Shakarangur”, “Kelin barmog`i” uzumlari va anjirlar haqida so`z yuritadi:

Saratonning dami kesilar,  
Tiniq tortar daryo irmog`i.  
Tokzorlarda sahar uzilar,  
“Shakarangur”, “Kelin barmog`i”.

Kuz kelishi bilan hamma meva-sabzavotlar pishib yetilgan, tuproq ham butun mehrini gul dudog`ida insonga tutqizgan, kuzning yulduzlari oltin boshqaday porlagan avgust – asad oyi sep-anjomi but, baxti kulgan qizga, tabiat esa to`y oldidan taraddud ko`rayotgan onaga o`xshatiladi:

Asad oyi sep-anjomi but,  
Baxti kulgan hur qizga monand.  
Ona kabi ko`rar taraddud  
To`y oldidan epchil tabiat.

Shoira tabiat tasvirini fasllar misolida bir-bir ko`z oldimizdan o`tkazar ekan, ko`proq kuz fasli tasviriga murojaat qiladi. Dam kuzning ajib va go`zal manzarasi-yu shirin-shakar mevalariga suqlansa, dam uning sokinligi, mahzunligiga oshno bo`ladi. Buni uning “Kuz osmoni”, “Noyabr chizgilari” kabi she`rlarida ham ko`rish mumkin. Yuqoridagi she`rning davomi sifatida ko`rishimiz mumkin bo`lgan quydagi she`rda kuzning o`z o`rnini qishga bo`shatib berishi tasviri berilgan:

Kalava o`raydi bog`larda shamol,  
Daraxtlar tirishar qorayib, yupun.  
Eng so`nggi manzilda erinib behol  
Kuz ham eski zangin chalmoqda bugun.

Bunda kuzgi shamolning bog`lar aro uvillab kezishi kalava o`ralishiga, daraxtlar shamoldan eti junjikkan kishiga o`xshatilyapti. Barglari to`kilib, yashilligi ketgani uchun daraxtlar qoraygan, yupun deya sifatlanayapti. Kuz erinibgina qish kelishi bilan butun tabiat uyquga ketishini anglatuvchi zangini chalmoqda. Bu kezda tabiat ham kamgap bir ayol singari qahraton oldidan bardosh yig`ayotgan ayolga o`xshatiladi. Quyosh ham hatto o`ziga bir makon izlab shoira qalbidan panoh so`ramoqda. Kuzning quyoshi pilla nuqrasiga o`xshatilyapti, boisi kuz yakunida quyosh tafti ancha pasaygan bo`ladi:

Bu kezlar tabiat kamgap bir ayol,  
Qahraton oldidan yig`moqda bardosh.  
Qalbimdan joy so`rab turar ko`kda lol

Pilla nuqrasiday sap-sariq quyosh!

Yil fasllarining har biri o`z jozibasi bilan shoira nazmida jilolanadi. Ularning barchasida ham shoiraning qaynoq qalb harorati yashirin.

### **Oydin Hojiyeva ijodida Qodiriyga munosabat masalasi**

Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy va Cho`lpon kabi shoir-yozuvchilar fojiasi adabiyotimizda chandig`i ketmas yara bo`lib qolaveradi. Bu jarohatga har qaralganda esa o`sha mudhish kun, o`sha mudhish zamon ko`z oldimizda qayta-qayta gavdalanaveradi.

Oydin Hojiyeva ham shu fojia uchun ko`ngli qattiq, hukmi botil zamonani ayblaydi. “Girya” she’ri xuddi ana shunday ayblovlar bilan boshlanadi. Zamona zayli bilan nobakorlar dastidan millat baxt-saodati, o`zligi uchun kurashgan adiblar aybsiz aybdor, gunohsiz qurbon bo`lishadi. Bu qurbonlik, fojia har kimning ham ko`nglini dard - hasrat bilan to`ldiradi. Qalbi ozorlangan shoira ko`zlari shashqator yoshga to`ladi-yu cheksiz dard bo`lib “Girya” she’ri tug`iladi. She’rda zamona o`z o`g`liga tig` urib kulgan qotil deya ayblanadi. Otabek-u Kumushning bo`g`ziga pichoq tiragan ham, behush Zaynab sochidan tortib ularning barini Qodiriy bilan mahv etganligi juda chuqur o`kinch bilan yodga olinadi:

Bo`g`ziga pichoq tirab

Otabekni, Kumushni,

Qora zulfidan burab

Zaynabgina behushni,

Qodiriy bilan qo`shib

Dorga tortgan zamona.

Labiga uchuq toshib

Ko`zi qotgan zamona.

She’rda zamona bir zolim shaxs sifatida gavdalandiriladi. Aslida zolim zamona deyilganda, o`sha davrdagi zolimlar ko`zda tutiladi. Bunday zolim shaxslar “labiga uchuq toshgan” deya sifatlantiriladi. She’rda O`zbekoyimga xon

oyim, yuraklari qon oyim, Oftoboyimga muloyim sifatlashlari keltiriladi. Otabek va Kumushning otashin va pok muhabbati “mehr kabutari” istiorasida berilib uni sixga tortgan, ya’ni o`ldirgan zamona qoralanadi:

O`zbekoyim – xon oyim,

Yuraklari qon oyim.

Oftoboyim ko`zida

Porlab turgan muloyim.

Mehr kabutarini

Sixga tortgan zamona.

Ichib seloblarini

Nahsga botgan zamona.

Shoira hech bir so`zni bekorga ishlatmaydi, bu bilan nimadir demoqchi, nimagadir ishora qilmoqchi bo`ladi. O`zbekoyim yuraklari qon oyim deganda uning Otabek va Kumush fojiasiga bir sabab bo`lgani, ayni shu o`zbekoyimning “kelin qayg`us”ida yuraklari qon bo`lgani ko`zda tutiladi. Eriga itoatli, iboli, muloyim, mehribon bir ayol Oftoboyim kabi qahramon nomining keltirilishi ham bejiz emas. Shoira zamonani shu ayollarga o`xshatyapti, zamona kishilari qiyofasida zamonani ta`riflayapti. “Mehr kabutarini sixga tortib, seloblarii ichgan” deyilganda zimdan Homid tilga olinadi. Chunki u o`zining arzimas, zararli va g`arazli manfaati orqasida ikki oilaning quvonchini halok etib, o`zi kabutarning seloblarinigina icha oldi, ya’ni o`z maqsadiga erisha olmadi, o`zgalar tinchligi-yu baxtining poymol bo`lganini ko`rib ko`ngli biroz taskin topa oldi, xolos.

Past-pastgina tepalar

Tog`lik davo qildilar.

Xondan kiyib sarpolar,

Bekni ig`vo qildilar.

Yuqoridagi bandda “past tepalar” istiorasi o`zi biror mansabdor yo xalq oldida jasorat-u fidoiyligi bilan, sadoqati bilan nom qozonmagan kimsalarga nisbatan ishlatilib, ularning o`zi past bo`lishiga qaramay tog`likni da`vo qilishi, ya’ni o`ziga munosib baho bermay, burgut bo`laman degan chumchuq kabi johil,

xondan sarpo kiyib uni ig`vo qilgan xushomadgo`y, tilyog`lama, ikkiyuzlamachi amaldor – xoinlar qoralanadi. Banddagi “past tepa” va “balandlik” tazodi ifodaviylik, ta’sirchanlikni oshirgan.

Otilma o`q, otilma,  
Jallodlarga sotilma.  
Tushma iymon qasdina  
Qora qona qotilma.  
O`q varanglar chaqmoqday  
Ko`kka uchar ozod ruh.  
Odam o`tmas ovloqda  
O`qqa uchar so`z, shukuh.

Shoira zamonani qoralab kelar ekan, uni o`z jigarbandining qotiliga aylanib qolmasligi uchun o`qqa murojaat qilib, o`q, otilma, jallodlarga sotilma, iymon, ya’ni iymon-e’tiqodi butun bo`lgan elparvar adib qasdiga tushib, uning qora qoniga qorishma, deb aytadi. E’tibor beradigan bo`lsak, qonni qora deya ta’riflaydi, axir qon rangi qizil bo`ladi-ku, shoira bu o`rinda mantiqsizlikka yo`l qo`yganmi? Yo`q, aslida bundagi qoralik o`sha davrga, qo`lini qonga botirgan jallodlar zamoniga va ularning bir-biridan tuban, qora kirdikorlariga nisbat berib aytilgan. She’rda o`qqa yuzlanib, sen ham odam o`ldirishdek qora ishga qo`shilma deyiladi. Ammo tarix hukmi shoira iltijosini qabul qilmadi, o`q otildi va shu ondayoq Qodiriyning razolatga bosh egmas, ozod va pok ruhi ko`kka ko`tarildi.

Ko`zlari ko`r zamona,  
Qulog`i kar zamona.  
Qurbonlik so`rab o`tgan  
Qizil ajdar zamona.  
Yig`lab- yig`lab tong otar  
Uyg`onmaydi biror zot.  
Jarlikda guvlab yotar  
Qodiriy degan faryod.

Haqiqatni ko`rmagan zamona ko`r, haq so`zni eshitmagan zamona kar, qurbonlik so`rab o`tgan qizil ajdarga o`xshatiladi. Tashxis orqali tong jonlantirilib yig`lashi tasviri band ifodaviyligi va ta`sirchanligiga xizmat qilgan. Qodiriydan judolikka chidolmagan tun yig`lab, o`z o`rnini tongga bo`shatib beradi. Bu mudhish qotillikdan tun-u tong xabardor, boshqa hech kim bilmaydi. Faqat jarlikda Qo-di-riy degan faryod elas-elas eshitilib turadi.

Bu she`r buyuklar taqdiri haqidagi jo`n bir haqiqat. Kumushni Otabekdan ayirgan zamon, Qodiriy ham bizdan ayirdi. Ammo Kumush ham, Otabek ham va ular siymosida Qodiriy ham asrlar osha kitobxonlar qalbida yashayveradi. Oydin Hojiyeva bu yig`lovni mustaqillikning dastlabki yillarida yozgan. Bugun ham, bundan keyin ham Qodiriy shaxsiga murojaat qilinaveradi. Qodiriy asarlari Kumushning “Siz o`shamu?” xitobi yanglig` hali necha ming asrlar yuraklarda “guvlab” turadi.

## **2.2. Shoiraning badiiy san'atlardan foydalanishdagi mahorati**

She'r san'at, she'r mahorat, she'r go'zallik, she'r nafosat. Haqiqiy she'r yozilmaydi, balki tug'iladi. Avval shoir qalbi dardlarining oh-u tutuni bo'lib ko'kka ko'tariladi-yu, qaroqlaridagi nur unsiz so'zlagani kabi ko'kdan ziyo bo'lib yog'iladi – tug'iladi. Bunda albatta, ijodkorning ilhomi, mahorati asosiy rol o'ynaydi. Ijodkor ham o'z navbatida o'zi yaratayotgan asarning badiiy go'zal va mukammal bo'lishini istaydi. Bunda shoiraga badiiy-tasviriy vositalar yordamga keladi. She'rga badiiy joziba, chiroy baxsh etuvchi unsurlar sifatida takror, ohang, badiiy san'atlarni sanash mumkin. Quyida badiiy san'atlar vositasida yaratilgan obrazlilik va emotsionallikni ko'rib o'tamiz.

Senga xat biturman, har safar –

Barg misol titraydi qo'llarim.

Yuragim go'yoki kabutar

Yo'l bo'lib to'shalar o'ylarim.

“Maktub” she'ridan olingan ushbu parchada shoiraning oq bulut ortida oy mudragan kezda kimgadir sirli maktub yozgani haqida gap boradi. “Har safar” so'zlaridan xatning bir necha marotaba yozilganligini bilish mumkin. Har gal yozilsa-da shoiraning xat ustida qo'li qaltirashi daraxt barglarining doimo titrab turishiga o'xshatiladi. Yuragini xat tashuvchi kabutarga qiyos qiladi. O'ylarining cheksizligi, davomiylini uzun yo'lga mengzab, o'ylarim so'z va dardlarim xabarchisi – yuragimga yo'l bo'lib to'shaladi deya o'xshatish san'ati vositasida go'zal ifoda yarata olgan.

Kelishing istadim, bir mayin

Kelar deb shabada ud chalar.

Kulishing esladim, bir mayin

Xandaga lab ochdi g'unchalar.

Ushbu she'rda shoira jonlantirish san'atidan foydalanib, yor kelar yo'lga shabadaning ud chalishi-yu, g'unchalarning xanda (kulgu)ga lab ochishini jonli tasvirlay olgan. Bunda yorning yurishi shabadaning mayin yurishiga, kulishi esa g'unchaning mayin tabassumi (ochilib turgani)ga o'xshatiladi.

Yigit, qahringiz ko`p yomon

Qahratonning zahriday.

Yor oldida omon-mon

Titraysiz sarv bargiday.

“Onam sevgan qo`shiq” she’rida askarning urushdan qaytishi, uni yori kutib olishi, uning kelishi bilan onaning bag`ri to`lishi tasviri beriladi. Jangda bo`lgan yigitning qahri tashbeh orqali qahraton qishning sovuqligiga, yor bilan ko`rishganda esa yor oldidagi hayajonidan sarv daraxtining bargiday titrab turishiga o`xshatiladi. Bunda jangchi qanchalik qahramon bo`lmasin, baribir uning jasorati vafodor yorining matonati oldida titroq bir bargchalik kuchsiz, zaif ekanligiga ishora bor.

Bedavodir bu g`urur, til topmadi imkon bilan,

Ko`z ochirmas menga bu dard birlashib bo`ron bilan.

Bezabon etdi meni, mahbubga bir so`z aytmadim,

Sut bilan kirgan bu odat endi chiqqay jon bilan!

To`rtlikda mavhum tushunchalar insonga xos harakatlar bilan harakatlantiriladi. Bu harakatlanish tashxis – jonlantirish san’ati bilan amalga oshirilib, g`ururning imkon bilan til topishmay, bo`ron bilan birlashib, insonni bezabon etgani, uning mahbubiga biror so`z ayta olmagan va bu unga odat bo`lib qolganligi aytiladi. Bu odatning o`zgarmasligi “Sut bilan kirgan, jon bilan chiqadi” maqoli bilan asoslanadi. She’r bandlarida fikrini maqol bilan asoslash, o`z fikriga dalil sifatida maqol keltirish san’ati irsoli masal deyiladi. Shoir ham shu o`rinda irsoli masal san’atidan o`rinli foydalana olgan.

Men kimlarning nuramagan metin bardoshi,

Iztiroblar evaziga kelgan tashakkur.

Va kimningdir parga tegib yorilgan boshi,

Bir nokasning changalida jon bergan g`urur.

Bunda she’rning lirik qahramoni o`zini metin bardoshga, iztiroblar evaziga kelgan tashakkurga, kimningdir yorilgan boshi-yu g`ururga o`xshatadi. Bu o`xshatishlar bilan men ba’zida kimningdir metin bardoshiday mustahkam,

ba'zida iztiroblar evaziga kelgan tashakkur kabi qadrli, ba'zan kimningdir parga tegib yorilgan boshiday mo'rt, sabotsiz, ba'zan bir nokas kimsaning qo'lida jon bergan najotsiz mazlumman deydi. Shoir o'xshatish vositasida ta'sirli ifoda yarata olgan.

Nuqta tushar bugun shirin dardimga

Bu dardimdan judo aylama, fursat.

Aylanaqol shamol – shiddatlarimga

O'shal bevafoi suyuqli ko'rsat!

Birinchi misrada “nuqta tushar” istiorasi hamda “shirin dard” oksimoroni qo'llangan. She'r lirik qahramoni oshiq shirin dardim – muhabbatimga bugun nuqta tushar – yakun yasalar, to'xtatilar, deydi. Va dard bo'lsa-da SHIRIN bo'lgan bu darddan ayrilishni istamaydi. Bevafo bo'lsa-da menga yorni suyuqli qilib ko'rsataver, chunki u qanday bo'lmasin, kim bilan birga bo'lmasin, unga nisbatan sevgim zarra kamimaydi, deb aytadi.

Oqmadi ham daryo teskari

Qish ketmadi bahorni yutib.

Mana dilning kun o'tgan sari

Jarohati bormoqda bitib.

Bandda qish va bahor so'zlari o'zaro tazodni hosil qilgan. Ammo asosiy fikr bo'lmish dilning jarohati kun sayin bitib borayotganligi tamsil san'ati vositasida ishonchli hayotiy misollar – daryoning hech qachon teskari oqmasligi, qish ham abadiy emasligi, uning ortidan bahor kelishi bilan dalillanadi. Bu yerda qish va bahor so'zlari ham o'z ma'nosida emas, istioraviy - ramziy bo'lib, qish – qora, qayg'uli kunlar, bahor – yorug', quvonchli kunlar ma'nosida qo'llanilgan.

Men sohilda turibman – oftob kulib boqmoqda,

Ishchan bilaklarimda g'ayratlarim oqmoqda.

O'z yo'lim, o'z hayotim, o'z so'zim menga peshvoz,

Qalbinga zehn solsam, charaqlaydi misli yoz.

She'rda jonlantirish san'ati orqali quyoshning kulib boqishi, yo'l, hayot, so'zning peshvoz chiqishi tasviri, qalbning quyoshga o'xshab charaqlashi tashbehi

jonli va go`zal ifoda yaratgan. Ishchan bilaklarda oqayotgan “g`ayrat” istiorasi qon o`rnida qo`llanilgan. She`r lirik qahramoni men sohilda turibman-u ishchan bilaklarimda g`ayrat oqadi, o`z yo`lim, so`zim menga peshvoz chiqadi, men bunda qalbim oftobidan ilhom olib g`ayrat bilan ishlashim lozimligini angladim, deydi.

Qahr ko`rib bir yonasiz,

Mehr ko`rib bir yonasiz.

Beso`z, behis, bedil nega

Intilmoqda yana Siz?

She`rda bir qahr bilan, bir mehr bilan yonib, behis, beso`z yoriga intilayotgan oshiq so`roqqa tutiladi. Bunda mehr va qahr so`zlari o`zaro tazod san`atini, beso`z, behis, bedil so`zlari ohangdoshlik – alliteratsiyani yuzaga keltirgan.

Nafrat-u muhabbat dilga qamalgan,

Na chirib ketar, na kirar amalga.

Gohi yer, gohi osmon bo`lganda o`zim

Ajab tomoshabin – ikkala ko`zim!

She`rda nafrat va muhabbat, chirib ketmoq va amalga kirmoq, yer va osmon so`zlari tazod san`atini hosil qilgan. Ko`zlar esa tomoshabinga o`xshatilgan. Shoir a dilda nafrat va muhabbat birga turibdi, ularning hech biri chirib ham ketmaydi, biri birini amalga kirishga ham qo`ymaydi, osmon-u yer bo`lganimda ham ko`zim tomoshabin bo`lib turaveradi, deydi.

Sen qalbimga qayg`ular ekding,

Shodlik bo`lib ko`kardi ul his.

Ko`zlarimga tun bo`lib cho`kding,

So`zlarimga yoyildi kunduz.

She`rning to`rtala misrasida “qayg`ular ekmoq”, “hisning shodlik bo`lib ko`karishi”, “tun bo`lib cho`kmoq”, “kunduzning yoyilishi” istioralarining qo`llanilishi ifodaviylik, ta`sirchanlikni oshirgan. Suyganiga qarata “sen qalbimni qayg`u bilan to`ldirib, meni tashlab ketgan bo`lsangda, u his qalbimga shodlik olib kirdi, sen ko`zimga tun kabi botsangda, so`zlarimda kunduz – yorug`lik bo`lib

qalbimga quvonch ulashdi”, deya aytadi. Bandda qayg`uli tunlar ortidan yorug` kunlar kelishining muqarrarlighi ta`kidlanadi. She`rdagi qayg`u va shodlik, tun va kunduz so`zlari o`zaro tazod san`atini yuzaga keltirib, bandning badiiy go`zallini ta`minlagan.

Shunday chog` bo`ldiki, qorlarga botdim,

Sovuq o`rmaladi toj-tomirgacha.

Muz o`rov ichida o`zni yo`qotdim,

Dedim: endi tamom oshkor - sirgacha.

She`rning lirik qahramoni shunday kunlarga yo`liqqanki, unda qorlarga botib, sovuqdan zirqirab, muz ichida o`zini yo`qotgan-u, endi barisi tamom – oshkordan sir bo`lgan barcha narsalargacha tugadi, deb o`ylaydi. Bunday qor, sovuq va muz o`rov so`zlari lirik qahramonning qayg`uli, dardli holatini gradatsion o`sib borishini tasvirlamoqda. Qor, sovuq, muz so`zlari istiora san`ati orqali lirik qahramon chekayotgan iztirob ma`nosini ifodalab kelgan va o`zaro ma`nosi yaqin so`zlar bo`lganligidan tanosib san`atini yuzaga keltirgan.

Bildim qahratonda olov yoqmoqni,

Jazirada saqlab qola oldim jon.

Mayli, yo`lim bo`lsin toshli, so`qmoqli,

Men yo`l izlamasman tep-tekis, ravon.

She`rda hayot yo`llarining doim ham ravon bo`lavermasligi, hayot insonni nimalarga majbur qilishi, qay yo`llarga boshlashi, bilmaganlarini bir- bir o`rgatib borishi haqidagi haqiqat mujassam. Shoira ham hayot yo`llarining o`nqir-cho`nqir bo`lishidan rozi, chunki shunday sinovlar silsilasida inson toblanib, o`zini rivojlantirib boradi – qahratonda olov yoqishniyam, jazirada jon saqlab qolishniyam o`rganadi. Bunda qahraton va jazira, toshli va ravon yo`llar tasviri tazod san`ati vositasida badiiyligni ta`minlashga xizmat qilgan.

Quvonsam, ranjisam, sabab – besabab,

Senga g`oyibona sig`inganman, baxt!

Kelishingni kutsam lahzalar sanab

Kutmaganda kelish – sen uchun odat!

Inson Baxtni har lahza intizor bo`lib kutadi-yu, biroq baxt kutilmaganda keladi. Shoir shu haqiqatni qalamga olar ekan, sabab – besabab quvonib ranjiganda yaxshi kunlar hali oldinda ekanligiga ishonib, baxtga g`oyibona sig`inib yashaganlini aytadi. Bu esa shoiraaning hayotsevarligidan dalolat. Banddagi quvonmoq va ranjimoq, kutganda kelmay, kutmaganda baxtning kelishi tazod orqali ochib berilgan.

Bitta qismat bizga issiqda, qorda,  
Gulda, xazonda ham nasibamiz bir.  
Olqishda, najotda, rohat, ozorda  
Hayot ikkimizga bir xilda tatir.

She`rda hayot yo`llarini bir- biri bilan bog`lagan ikki insoning taqdiri ham, qismati, ham shodlig-u ozori ham ikkisiga bir xilda bo`linishi haqidagi haqiqat o`z ifodasini topgan. Bunda butun umr yog`ilajak shodlik-u dard yomg`iridayam, yeyilajak yumshog`-u qattiq nondayam nasibaning bir bo`lishi, bir so`z bilan aytganda, xalqning kemaga tushganning joni bir degan naqli badiiy ifodalantirilgan. Bu badiiylik yil fasllarining istioraviy nomlanishi (“issiq” – yoz, “qor” – qish, “gul” – bahor, “xazon” - kuz)da ko`rinadi. Mudom yoki butun umr so`zlari o`rnida yildagi har bir fasl nomining birma-bir sanab o`tilishi doimiylik ma`nosini ta`kidlamogda.

Girdibodday ko`kka qiladi hamla  
Qilichday kesmoqchi bo`ladi suvni.  
Yerni ham yutmoqchi bo`ladi yamlab  
Tovushi marsiya kabi huv-huvli.

“Bo`ron” she`ridan olingan ushbu parchada bo`ron girdibod, qilich, marsiyaga o`xshatiladi. Bo`ronning girdibodday “ko`kka hamla qilishi”, qilichday “suv – yomg`irni kesishi”, “yerni yutishi” istiorasi, bo`ron tovushining marsiya kabi og`ir va qo`rqinchli “huv-huv”i tabiatning jonli manzarasini ko`z oldimizda namoyon etadi.

Mayli, baxt yoz, mayli shirin dard,  
Dil yotmasin partov va qurg`oq.

Hayot mangu etmasmidi tark

Qor - yomg`irsiz qolganda tuproq.

Baxt bo`lsa-da, dard bo`lsa-da insoning hamma qatori shunga loyiq ko`rilgani muhim. Dunyoda yurakning baxtsiz va dardsiz bo`lishidan og`ir azob bo`lmasa kerak. Shoir ham hayotni yana-da qadrliroq qiluvchi oq va qora kunlarning borligiga shukrona keltirish kerakligini tuproq misolida ko`rsatadi. Quyosh nuridan ham, qor-u yomg`irlardan ham mahrum tupro`ning hayot tark etishi shodlik va qayg`uli kunlar, sinov va mashaqqatlarsiz inson hayotining ham huvillab, ma`nosiz bo`lib qolishi kabidir, deya fikrini tamsil san`ati misolida asoslaydi. “Shirin dard” oksimoronini qo`llaydi, tashbeh vositasida dardsiz va baxtsiz dilni partav va qurg`oq yerga qiyoslaydi.

Bog`ingizda bevaqt yog`ib qor,

Izg`irinlar qah - qah urgan choq.

Qalbim qadab kelayin, bahor –

Umid bo`lib chiqargay yaproq.

Hayotda sinovlar hammaning boshida bor, ularga bo`yin egib emas, kurashib, baxtga talpinib yashash lozimligi shoiraning aksariyat she`rlaridagi dastak mavzu bo`lib keladi. Ushbu she`rda ham shoir qalbi qahratonning izg`iriniday sovuq va qorong`u bo`lgan dillarga bahordagi umid yaprog`i bo`lib kirib kelishini uqtiradi, o`z she`rlari bilan o`zidagi faqat yaxshi niyatlarga esh bo`lish fazilatini yuqtiradi. Izg`irinlar jonlantirish san`ati orqali yovuz insonlar kabi qah-qah etib kuladi. Bahor “umid yaprog`i” (istiora) bo`lib barq uradi. Shuningdek, she`rda izg`irin va bahor bir biriga qarama-qarshi qo`yiladi va bu tazod (qarshilantirish) san`atini yuzaga keltiradi.

Senga topinganim bildi-yu, tog`lar –

Dedi: “U biz kabi basavlat, sokin”.

Yonib ulgurmagan qizg`in chaqmoqlar

Dedi: “U biz kabi beshafqat, yorqin”.

Ma`shuqaning yoriga topinganini bilgan tog`lar uning yorini o`zlariga o`xshab basavlat, sokin ekanligini, qizg`in chaqmoqlar esa o`zi kabi bashafqat,

yorqin ekanlini aytadi. Bunda muallif tog` va chaqmoqqa tashxis orqali jon ato etib so`zlattiradi

(intoq san`ati) va tashbeh vositasida yorni tog`ga, chaqmoqqa o`xshatadi.

G`arq-u g`arqob bo`lsam toshqinda nogoh,

U daryo – taloto`p,

Ishq nahring sening!

Yongan yuragimni urganda chaqmoq –

Yoki qahring sening,

Yo mehring sening!

Taloto`p ishq daryosida ma`shuqa toshqinda g`arq bo`lsa, ishqdan yongan yuragini yorining chaqmoq bo`lgan mehri yo qahri urganda ham, u yorining ishqidan bahramand bo`lib, bu daryoda g`arq bo`lishidan va mehr yo qahri qorishiq yorining bir nazar solishidan benihoya mamnun. Yorining “ishq daryosi” istiora, mehri yo qahrining esa chaqmoqqa o`xshatilgani tashbeh san`atini yuzaga keltirgan.

Men bahorning ko`nglini topdim,

Uchardi gul arg`imchoqlarda.

Kuzning za`far libosin o`pdim,

Zar yaproqlar terdim bog`larda.

Qish bilan qo`l ushlab inoq

Chanalarda go`dakday uchdim.

“Xalqimning pok qo`li” deb oppoq

Zaminning baxt ko`ylagin bichdim.

Shoiraning deyarli har bir satri istiora, tashbehlar asosiga qurilgan. Ushbu “Fursat” she`rida ham “bahorning ko`ngli”, “kuzning za`far libosi”, “zaminning baxt ko`ylagi” kabi istioralardan o`rinli foydalanilgan. Muallif gulni jonlantirib, uni xuddi yosh qizaloqlarday arg`imchoqlarda uchishi, butun nabototi sarg`aygan kuzning za`faron libosga kirishini, qishga ham jon ato etib, u bilan qo`lma-qo`l ushlab chanalarda uchgani, qor bilan burkangan zamin oppoq ko`ylagini

kiygani ta'rifining o'ziyoq tabiat tasvirining naqadar go'zal va jonli chizilganligini ko'rsatadi.

Onajonim, ko'zlaringizda

Kunning nafaslari bor edi.

Onajonim, yuzlaringizga

Oyning havaslari bor edi.

Onaga qilingan tashbeh-u qiyoslarning chegarasi yo'q. Oydin Hojiyeva esa aytilgan tashbehlarining birortasini takrorlamay, o'ziga xos sodda va go'zal, nafis va betakror qiyos topa olgan. Onaning nurli ko'zlarida kunning nafasi, nurli va go'zal yuzlarida esa oyning havasi borligiga butun koinot iqror. Chunki dunyoda onaning ko'zlaridan-da mehribon, g'amxo'r, jafokash bir ko'z yo'q, onaning munavvar, hayotbaxsh, munis va darddosh yuzi – nigohidan-da chiroyliroq bir yuz yo'q. “Kunning nafasi”, “oyning havasi” istioralari band badiiyligiga xizmat qilgan.

Na iqror, na inkor, na ajrim, na sulh,

Sen o'z vujudidan badar ketgan Ruh!

Shoira baytda iqror, inkor, ajrim, sulh kabi uyushiq bo'laklar va ular mansub bo'lgan Ruh – umumlashtiruvchi so'zidan foydalanib, laf va nashr (yig'ish va yoyish) san'ati orqali aytmoqchi bo'lgan fikrini badiiy bezaydi. Murojaat etayotgan shaxsini o'z jismidan uzoq ketgan ruhga o'xshatadi.

Oy suzadi jimgina,

Yelpiydi uni shamol.

Yulduzlar zina - zina,

Lipillab ketar xiyol.

Shoira tun tasvirini chizar ekan, oyning sokingina nur taratib turishini dengizda sekin suzib boruvchi purviqor, oppoq kemaga, osmon bag'ridagi son sanoqsiz, bir-biridan yuksak yulduzlarni lipillab yonuvchi shamchiroq nurlariga o'xshatadi va buni tashbeh san'ati orqali, shamolning oyni yelpib o'tirishini jonlantirish san'ati orqali ifodalab, sokin tunni badiiy so'z qudrati bilan go'zal tasvirlaydi.

Oftobga yukingan oq sochli tog`lar –  
Etagida gulxan yoqilgay bahor,  
Gulxan zarralari – ol qizg`aldoqlar  
Yoshlik sepi kabi yashnaydi bahor.

Tabiat tasviri, fasllar jozibasidan ilhom olgan shoira har bir fasldan o`zgacha bir hikmat, o`zgacha bir xislat – go`zallik topadi. Oq sochli tog`lar istiorasi orqali tasvirlangan qorli tog`lar jonlantirilib, oftobga yukinadi, ya`ni ta`zim bajo keltiradi, chunki bahor kelishi bilan tog`lar boshidagi qorlar erib oqadi va bu tog`lar etagida bahor gulxan yoqadi, ya`ni yoshlik sepi kabi qizil qizg`aldoqlar unib chiqadi. Bahor yoshlik, yasharish darakchisi bo`lganligidan o`z sepidagi bor yashillik bilan olamni bezaydi, bundan qorli cho`qqilar etagi ham benasib qolmasligini shoira betakror tashbeh-u istioralar bilan ifodalaydi – bundan ko`z oldimizda bahorning jonli qiyofasi namoyon bo`ladi. Bandda qizg`aldoqlar gulxan zarralariga o`xshatiladi. “Oq sochli tog`lar”, “tog`lar etagi”, “yoshlik sepi” kabi istioralar bandning badiiy barkamolligini ta`minlagan.

Boychechakday qor ostida goh,  
Mashrab kabi dor ostida goh,  
Haq tug`ilar tor og`zida goh...  
Itlar hurar, karvonlar o`tar.

Hayot bir tekis davom etmaydi, u faqat oq yoki qora ranglardan ham iborat bo`lmaydi. Inson boychechakday qor ostida bo`lsa ham, Mashrab kabi dor ostida bo`lsa ham, iymonini but saqlashi, o`z hayot yo`li, maqsadidan og`ishmay harakat qilishi, doim sabot va matonatli bo`lishi kerak. Haq ham unga ishonganlarga, faqat unga suyanganlarga yordam qo`lini cho`zadi. Senga yomonlik istaganlarga yoki yo`lingni to`smoqchi bo`lganlarga parvo qilma – it hursa-da, karvon o`tadi. Ba`zan Alloh zikrini qilgan yo`qsul – “tor og`zida” ham Haq tug`iladi, ya`ni yaxshi fazilat-u xislatlardan yiroq bo`lgan, chin ma`noda ezgulikdan mahrum yo`qsullar tavbasi, zikrida ham Haq o`z marhamati bilan akslanadi. Bandda tamsil san`ati bilan “It hurar, karvon o`tar” maqoli misollar orqali asoslanadi. Talmeh san`ati orqali Mashrab shaxsiga murojaat qilinadi. Inson qor ostida boychechakka, dor

ostida Mashrabga o`xshatiladi. Yana bir she`rida xuddi shu fikrlar davom ettirilib, insonni yashashga, kurashga, yashagandayam olov yo chqmoq bo`lib yashashga da`vat etiladi:

Yer – ipak, qadaming pardan-da yengil,  
Mo`rcha qanotida musaffo ko`ngil.  
Yo hayqiriq, yo bir oh bo`lu tingil,  
Yonib yasha dunyo bir bozor ekan,  
Bir boshga bir o`lim xaridor ekan...

Inson butun vujudi bilan poklikka intilishi, bor imkoniyati bilan bashariyatga yaxshilik istashi kerakki, shunda uning har qadami qutlug` va tabarruk, har qilgan ishi xayrli bo`ladi. Shundagina yer ipak bo`lganda ham uning odimlari pardek yengil bo`ladi, ko`ngli ham chumoli qanotida ko`tararlik darajada musaffo, yengil, pokiza va gunohlardan forig` bo`ladi. Inson ana shunday ko`ngil sof, qolaversa, qalbida o`t, shijoat bilan yashashi kerakki, bu umr insonga bir marotaba beriladi va uni hech qanday izsiz, besamar o`tkazish mumkin emas, albatta, bir boshga bir o`lim xaridor ekan, umr qancha bo`lmasin, uni olov yo chaqmoqday atrofingga nur ulashib yashamoqqa da`vat etadi shoira. Bunda yer ipakka, dunyo bozorga, qadam parga o`xshatiladi.

Men yerdan, osmondan izladim xabar,  
Bahrdan izladim ishq degan gavhar.  
Banogoh topdimu tushdim hayratga:  
Aylandi u quvonch, qayg`uga dardga,  
Visolga, qo`shiqqa, yuz mashaqqatga,  
Mangu hayratga...

She`r lirik qahramoni dunyodan ma`ni izlab uni topgani, u ham bo`lsa ishq – muhabbat ekanligini o`zidagi o`zgarishlardan hayratga tushib ifodalaydi. Tashbeh san`ati vositasida ishqni avval gavharga, so`ngra quvonch, qayg`u, dard, visol, qo`shiq, mashaqqat, hayratga o`xshatadi. Yer va osmon, quvonch va qayg`u zidlanishlari orqali hosil qilingan tazod, quvonch, qayg`u, dard, visol, qo`shiq,

mashaqqat, hayrat kabi uyushiq otlarni keltirish orqali ifodalangan ta'did san'ati band badiiy qimmatini va o'qishligini oshirgan.

Shoiraning ma'naviyatimiz sarchashmalari – tafakkur xazinalari bo'lmish kitoblarga atalgan she'rida kitoblar tafakkurdan tug'ilgan hur oftoblarga o'xshatiladi.

Kitoblarda gullab yotar sevinchlar,

Kitoblarda cho'llab yotar orzular.

Kitoblarda zanglab yotar qilichlar,

Kitoblarda ko'llab yotar qayg'ular.

Band boshida kitoblar so'zining takrorlanishi anafora san'atini, kitoblarda “sevinchlarning gullashi”, “orzularning cho'llashi”, “qayg'ularning ko'llashi” kabi ifodalar istiorani, “sevinchlar” va “qayg'ular” qarshiligi esa tazod san'atini yuzaga keltirgan.

Yaxshiyamki, kitoblar bor olamda,

Ko'kka uchsang, oyog'ingdan tortadi.

Tarki dunyo qilib gohi alamdanda

Yerga kirsang – qulog'ingdan tortadi.

Banddagi “ko'kka uchmoq”, “tarki dunyo qilmoq”, “yerga kirmoq” kabi iboralar qo'llanilishi ta'bir san'ati, yerga kirmoq va ko'kka uchmoq iboralari qarshilantirish – tazod san'ati, kitoblarning oyoqdan, quloqdan tortishi jonlantirish san'ati bandni badiiy bezagan. Kitoblar borligi insonlarni o'zini anglashga, o'ziga munosib baho berishga undashi iboralar bilan asosli ifodalangan.

Sevgi ham niholday parvarishga zor:

Istaydi suv, havo, mehr-u quyoshni.

Bo'larkan donishmand, tiyrak, barqaror

Yetganda sevgining kamolot yoshi!

She'rida sevgi niholga o'xshatiladi, u dastlab yurakda kurtak ochganda juda ham nozik, musaffo va beg'ubor bo'lishi, shuning uchun g'o'r va “ko'zlari ko'r” bo'lishi-yu ko'proq e'tibor, mehr - muhabbat kutishini, kamolot yoshiga yetganda esa xuddi insondek hayotning turli chig'iriqlaridan o'tgan, tiyrak va donishmand

bir kishiga aylanib qolishi aytiladi. She'rdagi sevgi niholga, inson umriga tashbeh qilinadi. Suv, havo, mehr, quyosh so'zlari ta'did san'atini yuzaga keltirgan.

Yashirin noladan oshkor bo'lmoq xush,

Dardning bosh-boshidan hushyor bo'lmoq xush.

Pinhona nafratdan, xufya g'azabdan

Mardona, yuzma-yuz ozor bo'lmoq xush.

Yashirin noladan xabardor bo'lish yaxshi, dardni ham avvalidan bilmoq yaxshi, nafrat-u g'azab oldida ham yuzma – yuz turmoq yaxshidir, deyiladi she'rdagi. Ya'ni, birovni shirin so'z bilan aldab, havoyi ko'klarga olib uchib, bir kunda yerga tushirib qo'yishdan ko'ra, avvalboshidan yerda olib yurmoq afzaldir. Chunki aldanganini bilish, ko'kdan yerga tushish insonning ko'nglini sovitib, ruhiyatiga juda katta salbiy ta'sir qiladi. Shirin yolg'ondan ko'ra achchiq haqiqat yaxshi demoqchi bo'ladi shoira. Bandda yashirin va oshkor, ozor va xush so'zlari tazod, dard va nola, nafrat va g'azab, pinhona va xufya so'zlari tanosub, xush so'zlarining misralar oxirida takrorlanishi esa epifora san'atini yuzaga keltirgan.

Mehringiz zarrasi agar yolg'ondir,

Ko'zimda tug'yondir, rangim somondir.

Tirik o'lganim ul, rost gapiring, rost,

O'lganning ustiga tepgan yomondir.

Agar muhabbatingiz zarrasi ham yolg'on bo'lsa, bundan ko'zimda hislar isyoni, rangim somon bo'ladi, bu mening tirik o'lganim bilan barobar, shu bois ham faqat rost gapiring, chunki o'lganning ustiga tepgan yomondir deydi shoira. "Mehringiz zarrasi" istiorasi, "tirik o'lganim" oksimoroni, "rost" va "yolg'on" so'zlaridagi tazod, "o'lganning ustiga tepmoq", "rangi somon" iborasi orqali hosil qilingan ta'bir san'ati bandning badiiy jilosiga xizmat qilgan.

Hayot haqiqatini teran anglagan shoira o'z bilganlarini kitobxon bilan bo'lishgisi kelib, fikrini she'rxonga bir-biridan go'zal badiiy topilmalar, badiiy san'atlar betakror ifodalar orqali yetkazadi.

### **Bob bo'yicha umumiy xulosa**

Oydin Hojiyeva ijod daftarining mavzu va obrazlar olami rang-barang. U inson qalb torini chertgan har bir tuyg'uga o'zining teran nigohi bilan nazar solib, ularni o'z ko'nglidan bir-bir o'tkazadi. Bashariyatga hamdardlik hissi, o'z qalbida faxr tuyg'usi bilan qalam tebratadi. Biz yuqorida kuzatgan, tahlilga tortganimiz vatan, istiqlol, tarixiy davr va yo ayol, yor, tabiat obrazlari, tasvirlari bo'ladimi, ularning barchasi ham yuksak iste'dod ko'pirgan ilhomlardan tug'ilib, go'zal va betakror badiiy-tasviriy vositalar bilan o'zgacha jilo kasb etgan.

## **Xulosa**

O`zining nafis va mayin she`rlari, tug`yonli dostonlari bilan kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan O`zbekiston xalq shoirasi Oydin Hojiyeva asarlarida jo`shqin yoshlik his- tuyg`ulari, ona yurtimiz, go`zal tabiat manzaralari, ayol qalbi tug`yonlari o`zining yorqin ifodasini topgan. Oydin Hojiyevaning deyarli barcha to`plamlarida pokiza va mehribon, kechirimli va sadoqatli ona tuyg`ulari, didli, farosatli va noziktab shoira qalbi jo`sh urib turadi. Bir ko`rishda nozik tuyg`ular, nafis misralar bo`lib tuyulgan she`rlar zamirida zalvorli insoniy g`oyalar – dunyo voqealariga hamdardlik, insonlar mushkulini yengillashtirish uchun kurash, o`z ona xalqi, ona tuprog`i, madaniy merosiga mehr baralla yangraydi. Vatanga muhabbat, ma`naviy poklik, til bilan dil birligi, hayotning abadiy orzu – armonlari, inson matonati, xalqimizning olijanob qalbini kuylash, odamlarga munis, mehribon dardkash bo`lmoq istagi shoira ijodining bosh mavzusidir. Shoiraning she`rlari va dostonlarida urush davrining guldek kelinchaklari, otasiz qolgan dugonalarining urushga ketgan yigitlar o`rnida qolib kecha-yu kunduz mehnat qilgan keksa chollar, yoshi o`tib qolgan ayollarni ko`ramiz, ularning ovozini eshitib qalblariga nazar tashlagandek bo`lamiz. Bulardan tashqari, istiqlol yillarida Oydin Hojiyeva qalbidan joy olgan, turli sohalarda xizmat qilayotgan turli yoshdagi kishilar ham o`z turfa obrazlari bilan uning she`rlarida bo`y cho`zib turgandek bo`ladi. Uning toza qalbidan jo`shqin, ohori to`kilmagan, quyma satrlar poeziyaning she`r, manzuma, qasida, doston, she`riy qissa, esse - xotirot, to`rtliklar bo`lib dillarga ko`chdi. Shoira, asosan, barmoq vaznida ijod qildi. She`riy shakllar borasidagi izlanishlari natijasida uch va besh misradan iborat she`rlar yozdi. Shoira doston janrining ham go`zal namunalarini yaratdi. Uning “Najot” dostoni Alisher Navoiyga, “Ziyorat” dostoni esa xotira maydonini ziyorat qila turib jangda shahid bo`lgan akasi va u orqali o`z onasi, oilasi, jangdagi shahidlar xotirasiga bag`ishlangan.

Shoira ijodida avtabiografizm elementlari ham ko`p uchraydi. Shoira ko`pgina she`rlarida o`zi tug`ilib o`sgan zamin qadim Buxoroning zarga kon qizil tuprog`i – Qiziltepa va undagi ko`ngliga yaqin, ko`ziga issiq qishloqlar tasvirini

chizadi. Zarmetandagi Hamrobobo xonadonida tugʻilgan bir qiz uchun shoiradan ismini soʻrashganda jajji qizaloqqa bagʻishlab yozgan qutlovida Zarmetan qishlogʻi tilga olinadi. Shoir bir sheʼrida “oʻn toʻrt kunlik oyday farishta payti” – bolaligini eslar ekan, oilada besh qiz opa-singil ekanligini, ammo opalaridan ikkitasi bevaqt olamdan oʻtganini dilida chuqur oʻkinch bilan xotirlaydi. Navoiy va Buxoro hududlarini yagona hudud – vatan sifatida Buxoro nomi bilan ataydi. Sheʼrlarida Qiziltepadagi jang izi qolgan xarobot – Shahribarbar, Zarafshon, Tudakoʻl, Oʻrtachoʻl, Zarmetan, Xoja Boʻston, Abduxoliq Gʻijduvoniylar ziyoratgohini, Malikchoʻl, sardoba, Raboti Malik kabi joy nomlarini tilga olar ekan, oʻzi tugʻilgan muqaddas tuproqqa chuqur muhabbat ila bogʻlanganini taʼkidlaydi.

Shoir qaysi mavzuda qalam tebratmasin barida bir xil samimiylik, oʻtli mehr qorishiq. Vatan yo tabiat mavzusi boʻladimi, istiqlol yoki ayol toʻgʻrisida yozadimi barisi oʻzi bilgan, koʻrganlarini, boshidan kechirib, qalbidan tuyganlarini qogʻozga tushiradi. Atoqli shoirlarimizdan, noyob badiiy topilma – tashbehlari bilan sheʼrxon qalbini zabt etgan ijodkorlarimizdan Hamid Olimjon vatanining tabiati, yashil vodiylari-yu azim daryolarini kuylasa, Abdulla Oripov koʻproq uning tarixi, ajdodlar qoldirgan buyuk meros, ular qilgan buyuk jasorat, tengsiz fidoyiliklarni qalamga oladi. Oydin Hojiyevada esa vatan mavzusi maʼlum doira yuzasida emas, balki vatanini butun borligʻi bilan sevgan, haqiqatan uning uchun jonini fido qila oladigan, vatan ishqini bilan yonib yashaydigan bir inson qalbida nimaiki boʻlsa, barcha-barchasini oʻtli qalb harorati bilan qamrab olgan. Shoir ijodida qoʻli qadoqlarga, koʻngli sadoqatga, cheksiz mehr-u saxovatga toʻlgan, hayo toʻla koʻzlari vafoli boqqan, oilam, bolam deb qirq bir jonin oʻtga yoqqan, har soʻzida mehri daryoday oqqan, koʻzi toʻla muhabbat, yuzida xayr-u shafqat, bosgan qadami qutlugʻ, nomi har nedan ulugʻ oʻzbek ayolining ham oʻziga xos tasviri bor. Oydin Hojiyeva sheʼriyatida muhabbat tuygʻusi ham vataniga, yaqinlari, yaqinim deb bilgani butun oʻzbek xalqiga, ulugʻ ajdodlari-yu koʻngil oʻgʻrisi – yoriga muhabbat nihollari yangligʻ boʻy choʻzdi. Oʻzbek ayollarining hayoga burkangan qiyofasini koʻrsata

olgan shoira yorga boʻlgan sevgisini baralla, ochiq-oshkora kuylamaydi. Sevgisini ha deb pisanda qilmaydi. Shu boisdan boʻlsa kerak, shoiraning yorga boʻlgan muhabbatini ham, murojaatini ham kam tilga oladi.

Shoira nazdida istiqlol – bu tarixning imtihoni. Bu imtihondan kim, qanday oʻta oldi? Kim shu ozod va obod vatanni qurmoqqa bir xas keltira oldi-yu kimlar tomoshabin boʻldi? Oydin Hojiyeva bu yoʻlda Fitrat-u Choʻlpon singari millatparvarlar izidan borib, qoʻlga kiritilgan hurlik tugʻini asr imtihonidan eson-omon, yorugʻ yuz, buyuk shon bilan olib oʻtish lozimligini taʼkidlaydi.

Oydin Hojiyeva ham tabiat tasvirini chizar ekan, uni inson kayfiyati, ruhiy holati bilan bogʻlaydi yoki inson ruhiyatini tabiat hodisalari orqali tasvirlaydi. Buning aksi oʻlaroq, shoira ijodida aynan tabiat goʻzalliklari tasvirini chizishga bagʻishlangan sheʼrlar ham bor. Shoira tabiat manzarasini fasllar misolida bir-bir koʻz oldimizdan oʻtkazar ekan, koʻproq kuz fasli tasviriga murojaat qilganini koʻramiz. Dam kuzning ajib va goʻzal manzarasi-yu shirin-shakar mevalariga suqlansa, dam uning sokinligi, mahzunligiga oshno boʻladi. Buni uning “Qiyos”, “Avgust kunlari”, “Kuz osmoni”, “Noyabr chizgilari” kabi sheʼrlarida ham kuzatdik.

Moziyga bir nazar tashlab, istiqlol deb, hurlik deb kurashgan, jon fido qilgan millatparvarlar zamoniga murojaat qiladi. Hukmi botil, zahri qotil boʻlgan zamonani qoralaydi. Abdulla Qodiriy misolida oʻsha davrda erk deya qurbon boʻlgan fidoyilar hayotiga zomin boʻlgan jaholat, maʼrifatsizlikdan qattiq iztirobga tushadi. Ammo bunday ozodlik yalovbardorlarining yodi oʻzbek xalqi qalbida abadiy qolishi, nomining katta ehtirom bilan tilga olinishiga ishonadi.

Shoira sheʼrlarining bari birday qalbga yaqin. Qalbdan chiqqan satrlar toʻgʻri qalb koʻchadi. Bunda albatta shoiraga badiiy-tasviriy vositalar ham yordamga keladi. Ular sheʼr misralarining shakli va maʼnoviy goʻzalligi, barkamolligi, ifodaviyligi va emotsionalligini oshirishga xizmat qilgan. Bunday badiiy-tasviriy vositalar qatorida biz yuqorida koʻrib oʻtgan tashbeh, tanosub, tashxis, talmeh, tazod, anafora, epifora, alliteratsiya, taʼdid, laff va nashr, intoq, istiora, oksimoron, tamsil, irsoli masal kabi sanʼatlarni sanashimiz mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Oydin Hojiyeva XX asr o`zbek she'riyatining o`ziga xos ovozi bo`lgan zabardast vakillaridan biri sifatida adabiyotimizda katta o`ringa ega. Uning bugun ham ijod qilib kelayotgan ijod namunalari, o`tli qalb harorati, yurak qatlaridan chiqqan noyob badiiy topilma – tashbehlar hali necha ming yuraklarga kirib borib, ularni zabt etishi shubhasizdir.

## **Mundarija:**

|                                                                              |  |
|------------------------------------------------------------------------------|--|
| Ilovalar.....                                                                |  |
| Kirish.....                                                                  |  |
| I bob. Oydin Hojiyeva zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin namoyandasi..... |  |
| 1.1. Oydin Hojiyevaning ijodiy biografiyasi.....                             |  |
| 1.2. Shoir she'rlarining janriy tarkibi.....                                 |  |
| 1.3. Shoir she'rlarida avtobiografizm.....                                   |  |
| Bob bo'yicha umumiy xulosa.....                                              |  |
| II bob. Oydin Hojiyeva she'riyatining badiiy xususiyatlari.....              |  |
| 2.1. Shoir she'riyatining mavzu va obrazlar olami.....                       |  |
| 2.2. Shoiraning badiiy san'atlardan foydalanishdagi mahorati.....            |  |
| Bob bo'yicha umumiy xulosa.....                                              |  |
| Xulosa.....                                                                  |  |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....                                      |  |

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

### **Ijtimoiy - siyosiy adabiyotlar:**

- 1.Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1998.
- 2.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: O'zbekiston, 2008.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2018.

### **Ilmiy adabiyotlar:**

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 2005.
2. Nazarov B., Rasulov A., Axmedova Sh., Qahramonov Q. O'zbek adabiy tanqidchiligi. O'quv qo'llanma. – T.: MUXR-PRESS, 2018.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: Xalq merosi, 2004.
4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
5. Бобоев Т., Бобоева З. Бадиий санъатлар. – Т.: 1999.
6. Дўстмуҳаммад Х. Ижод – кўнгил мунавварлиги. – Т.: Мумтоз сўз, 2010.
7. Каримов Н. Меҳрли шеърят. – Т.:Шарқ, 2010.
8. Қаяюмов А. Шеърят жилолари. Тошкент: «Ўқитувчи», 1997.
9. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Т.: Маънавият, 2004.
- 10.Қувватова Д. XX аср иккинчи ярмида ўзбек поэмаси. Тошкент: Турон заминзиё, 2014.
- 11.Қундузой Хусанбоева. Таҳлил – адабиётни англаш йўли. – Т.: Мухаррир, 2013. 431 бет.
- 12.Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Академнашр, 2010.
- 13.ҚуроновД. Адабий ўйлар. – Т.: Туронзаминзиё, 2016.112 б.

- 14.Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адиблари. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 2016.
- 15.Норбоев Б. Истиқлол ва истеъдод. –Т.:1994.
- 16.НорматовУ. Ижод сеҳри,Т.: –Шарқ, 2007.
- 17.НорматовУ. Кўнгилларга кўчган шеърият. –Т.: 2006.
- 18.Ойбек. Адабиёт тўғрисида. Т.: Фан, 1985, 14-бет.
- 19.Ражабов Қ., Максудов Р. Қизилтепа тарихи. – Т.: Мухаррир, 2011.
- 20.Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2008.
- 21.Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. Т.: – Шарқ, 2007.
- 22.Расулов А. Ойдин шеърият. - Тошкент, 2010.
- 23.РасуловА. Бетакрорўзлик. – Т.:Мумтоз сўз, 2009.
- 24.РасуловА. Услуб – истеъдод портрети. – Т.: 2013.
- 25.Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Т.: Фан, 1979.
- 26.Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. –Т.: Фан, 2007.
- 27.Сафаров О.Бухоро адабий ҳаракатчилиги саҳифаларидан лавҳалар.
- 28.Ўзбек модерн шеърияти. Т.: Янги аср авлоди, 2003.
- 29.ЎзМЭ. Биринчи жилд. – Тошкент, 2000.
- 30.Улуғбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърияти. – Т.: Адиб, 2012.
- 31.Улуғов А. Қалб қандили. - Т.: Академнашр, 2013.
- 32.Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: Ўқитувчи, 1995.
- 33.Ҳаққулов И. Бадиий ижод иқлими. –Т.: 2010.
- 34.Ҳаққулов И.Ўлмас оҳанглар. Шеърият-руҳий муносабат. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990.
- 35.ҲамдамовУ. Бадиий тафаккур тадрижи. –Т.: Янги аср авлоди, 2002.
- 36.ҲамдамовУ. Янгиланиш эҳтиёжи. – Т.: 2002.
37. Шарафиддинов О. Замон. Қалб. Поезия. – Т.: Фан, 1962.
- 38.Шарафиддинов О. Поезияда тил ва стил масалалари. – Т.: Ўзбекистон, 1959.

### **Ilmiy va publitsistik maqolalar:**

1. O`zbek adiblari(Oydin Hojiyeva).“Gulxan”jurnali. 2018-yil, 3-son.
2. Куронов Д. Лирик асар композитсияси. “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 2018 йил, 2-сон, 14 - 23-бетлар.
3. Хусаинова Ф. Ойдин Ҳожиёванинг мақол ва иборалардан фойдаланиш маҳорати. “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 2009 йил, 2-сон, 90 - 93-бетлар.

### **Badiiy adabiyotlar:**

1. Ойдин Ҳожиёва. Кўзимнинг оқу қораси. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1996.
2. Ойдин Ҳожиёва. Мушфиқ онажон. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1983.
3. Ойдин Ҳожиёва. Паноҳим. . – Т .: Шарқ, 1998.
4. Ойдин Ҳожиёва. Тонг тухфалари. – Т .: Шарқ, 2012.
5. Ойдин Ҳожиёва. Шом шуълалари. – Т .: Шарқ, 2010.